

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**UMUMIY  
PSIXOLOGIYA**

**KAFEDRASI**

**Ma'ruzalar matni**

**ANDIJON-2018**

Mazkur ma'ruza matni Andijon davlat universitetining 2018 – yil “\_\_\_\_\_”  
dagi “\_\_\_\_\_” –sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Umumiy psixologiya” fani dasturi asosida  
tayorlangan.

**Tuzuvchilar:** O.Qodirova - ADU. Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi.  
B.Parmonov - ADU. Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi.

**Taqrizchi:** Yo.Yusupova.- ADU- psixologiya kafedrasи katta o'qituvchi.

## **1-Mavzu: YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.**

### **Reja:**

1. Yosh davrlari psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari
2. Komil inson Ta'limsi - Sharq mutafakkirlarining talqinida
3. Yosh davrlari psixologiyasini vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.
4. Hozirgi zamon yosh davrlari psixologiyasi fanining asosiy vazifalari

Hurriyat - boy ma'naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari Ta'lim-Ta'limni to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Bu borada, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya - hozirgi zamon psixologiya fanining rivojlangan sohalaridan bo'lib, bu o'rinda muhim o'rinn egallaydi, zero u inson ruhiy olamining tabiatini va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mushtarak, bir-biriga uzviy bog'liqidir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni - ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Biroq, shunday bo'lsa-da, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir.

Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi,

Ontogenet - (yunoncha, ontos-mavjud, jon, zot; genezis-kelib chiqish, paydo bo'lismish)  
- individning paydo bo'lismidan umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatları, undagi yetakchi omillar hamda inson xayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlari - yosh davrlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, Ta'lim va Ta'limning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlari psixologiya fani bu borada ham o'z-o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan Ta'lim va Ta'limning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir.

Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar yosh davrlari psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi, chunonchi; bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (gerontopsixologiya) psixologiyasi kabi sohalardir.

Yosh davrlari psixologiyasi fanining nazariy vazifalari shaxsning kamol topishi qonuniyatları va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladi psixik, faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kirgan ilmiy dalillarini Ta'lim-Ta'lim sohalariga tadbiq etish tashkil etadi.

Bu borada, ayniqsa, pedagogik psixologiya birmuncha ulkan yutuqlarga erishdi. Pedagogik psixologiyaning Ta'limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'nggi yillardan qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha Ta'lim tizimlarida Ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan, muammoli interfaol Ta'lim metodlari) keng joriy qilinmoqda.

Yosh davrlari psixologiyasi ham pedagogik psixologiya singari umumiyligi psixologik qonuniyatlarini yoritib beradigan, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rghanadigan umumiyligi psixologiyaga asoslanadi.

Shu bois, yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanini o'rghanish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiyligi tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada to'plangan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan babsiz yuritadi.

## 2. Komil inson Ta'limi - Sharq mutafakkirlarining talqinida.

Yosh davrlar psixologiyasi predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmnинг rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o'rtasida olib borilgan doimiy kurash katta ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rghanmagan bo'lsalar-da, biroq allomalarining qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urfodatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Abu Rayxrn Beruniy Ta'lim va Ta'limning maqsadi, vazifalari va mavqeい, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va Ta'limning tabiatta uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy Ta'lim jarayonining tabiatiga chuqr kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, Ta'lim-Ta'limsi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni Ta'limlashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi") asari Ta'lim va Ta'lim, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xirandnomai Iskandari”, “Tuhfatul ahror” va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, Ta’lim-Ta’lim, kasb-hunar o’rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlari ifodalangan.

Alisher Navoiyning “Hazoyinul maoniy”, “Mahbubul qulub” va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma’naviyati, o’zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to’g’risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. SHuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohozalari alohida o’rin egallaydi.

Navoiy “Xamsa”sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat’iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg’ulari, ijodiy hayolot, iisonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. SHuningdek, bu borada Mahmud Qoshg’ariy, Ulug’bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk sharq mutafakkirlarining yoshlar Ta’limsiga, o’qituvchi, Ta’limchining jamiyatdan o’rni, ahloq-odob, fe’l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganlnagini ta’kidlash mumkin.

#### 4. Hozirgi zamon yosh davrlari psixologiyasi fanining asosiy vazifalari

Yosh davrlar psixologiyasi fani ham psixologiya ilmining boshqa sohalari singari o’zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina xolisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga bo’lish maqsadga muvofiqdir.

1. Muammoninig qo’yilishi. Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, isixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur Mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilishdan boshlanadi.

2. Tadqiqot metodikasini tanlash. Psixologik tadqiqotlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida bat afsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko’p jihatdan metodni to’g’ri tanlashga bog’liq bo’ladi.

3. Ma’lumotlarni to’plash. To’plangan ma’lumotlar o’rganilayotgan muammoga mos bo’lishi yoki ularni to’plash maqsadga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma’lumotlarga bo’lgan asosiy talablar - bu ularning xolisona, to’la va izchil bo’lishidir. To’plangan ma’lumotlar o’rganilayotgan muammoni har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. Ma’lumotlarni qayta ishslash. To’plangan ma’lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiyligini, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma’lumotlardan ajratish imkonini beradi. Bunda to’plangan ma’lumotlarning o’rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va hokazo), protsentlari aniqlanadi, sonlarga oid ma’lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o’z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma’lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qo’llaniladi.

5. Qonuniyatlarining ifodalananishi. Bu tadqiqotning birmuncha murakkab va mas’uliyatli bosqichi hisoblanadi. CHunki, bu bosqichda ma’lumotlarning mohiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o’zaro bog’liqligini hisobga olib, bosqich ma’lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko’pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo’lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo’ladi.

6. Qonuniyatni amalda qo’llash. Aniqlangan qonuniyatlar ma’lum bir amaliyot sohasida qo’llaniladi. Amalda qo’llash aniqlangan qonuniyatning to’g’riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko’pincha o’qituvchilar o’z amaliy faoliyatlarida shaxsiy kuzatishlari va boshqalarning tajribalarini umumiylashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo’lmaydi, ya’ni, muhim aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi.

Metod - (yunoncha, methods - tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o’zlashtirish usullari yig’indisi.

Tajribada qo'ullaniladigan metodlar sirasiga quyidagalarni kiritish mumkin. Kuzatish metodi. Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdag'i hayot va sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir.

E.Goziyev. Tosh. 2014y. Ontogenez psixologiyasi.

Yosh davrlar psixologiyasi bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini-o'zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
- v) sinaluvchining yoshi, jinsi haqida ma'lumotlar to'planadi;
- g) tadqiqot o'tkazish vaqtি rejalashtiriladi;
- d) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
- e) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya etiladi;
- yo) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tayinlanadi;
- j) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi. Ammo, o'ta murakkab ichki isixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkonini yetmaydi.

2. Eksperimept metodi. Sun'iy hosil qilingan psixologik sharoitda namoyon bo'lувchi psixik faoliyatni tahlil qilishdan iboratdir. Eksperimentator yoki tajriba o'tkazuvchi psixik faoliyatning o'ziga kerakli hodisasini maxsus tarzda hosil qiladi hamda uning namoyon bo'lish sharti va xarakterini belgilaydi. Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi.

Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy yaratgan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar hodimlarining, o'qituvchilarning ish qobiliyatları, o'zaro munosabatlarini, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari be xabar bo'lishi, Ta'l'm jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (ba'zida guruh yoki jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatkichli va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasi o'zgarishlarini aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari, qurilmalar, moslamalar mavjud. Ko'pincha elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, elektroentsefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordamida diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emotsiyonal hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, haydovchi, operator, elektronlar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (xalokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi) ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsiyonal-irodaviy zo'riqish, jiddiylik, tajanglik sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

3.Psixologik-pedagogik eksperiment - o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o'rganishdir.

Mazkur eksperiment o'quvchilarni maxsus uyushtirilgan Ta'l'm sharoitida maqsadga muvofiq ulardan o'zgarishlarni kuzatishni taqozo etadi. Bu eksperiment aniqlovchi va tarkib toptiruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, maxsus uyushtirilgan Ta'l'm tarkib toptiruvchi

eksperiment jarayonida olib boriladi. U quyidagi tuzilishga ega: eksperimentator yoki tadqiqot olib boruvchi, sinaluvchilar, faraz, reja, yo'l-yo'riq, tajribaning bir-biriga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lмаган, о'згарувчан, назорат qилинадиган va qилинмайдиган qismlardan iborat. Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlari: farazni ilgari surish, metodikani tanlash, eksperimentni rejalashtirish, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil etish va izohlashdan iboratdir.

4. Anketa metodi. Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarining munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch turda o'tkaziladi.

Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi.

Ikkinci turida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi.

Uchinchi turdag'i anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalilaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Biroq unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunday kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

5. Suhbat metodi erkin, nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir. Bu metod yordamida inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifikasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshidagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

6. Test metodi. Test - inglizcha «sinash», «tekshirish» degan ma'noni anglatadi, SHaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol yoki jumboqlar test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasb egallah mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, to'plangan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishiga bog'liqdir.

1905 yil frantsuz psixologlari L.Bine va L.Simonlar insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lhash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidai keyin psixologiyada test metodi qo'llanila boshlandi.

Hozirgi zamon nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozentsveyg, Kettel, Veksler, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarida berilgan bilim va malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lhashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proaktiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil kilib, shaxs xususiyatining «loyihasig» ishlab chiqiladi) kiradi.

7. Biografik (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar biografik metod orqali o'rganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergen baholari, taqrizlari alohida o'rinn egallaydi.

Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filbmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxs haqida to'la tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini-o'zi Ta'limlashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot chuqqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

8. Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsiyal munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi, Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so'raladi, Tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatni o'lhash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi, Maktabgacha Ta'lim muassasalari maktabdagi o'quvchilar jamoasi, mehnat lagerlari, oliy maktablar, mehnat jamolari va turli muassasalarning hodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarni-ning sababi shu metod yordamida o'rganiladi, Umuman olganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asarini mutolaa qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma bayon eting:

- a) insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.
- b) irodaviy fazilatlarni shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, Ta'lim va Ta'limning kuchi haqida.
- v) yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani egallashi to'g'risida.

2. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.

3. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.

4. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat? Uning istiqboli haqida nima deya olasiz?

5. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

## **2-MAVZU: YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA TARIXI.**

**Reja:**

- 1.Yosh davrlari psixologiyasining vujudga kelishiyu
- 2.Rivojlanish tarixi va hozirgi holati.
- 3.Yosh avlodning Ta'lim va Ta'lim bilan bog'liq psixologik muammolari

Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII diniy-ahloqiy Ta'limotlar zamirida yoritilgandir. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari SHarq va g'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilay bog'liq turli asarlarda shakllanib kelgan. V.N.Tatishev, A.N.Radishev, N.I.Novikov va boshqalarning asarlaridagi dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo'g'rilgandir.

Rus tarixchisi V.N.Tatishevning "Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat" kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarning ahamiyati, til va nutqning mavqeい, yosh davrlarining xususiyatlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

A.N.Radishev birinchilar qatori bola psixik taraqqiyotini tabiiy-ilmiy yo'sinda asoslab berishga urindi. Uning "Peterburgdan Moskvaga sayohat" kitobi bu borada pedagogik-psixologik asarlar sirasidan munosib o'rin egallaydi. Yozuvchining fikricha, inson tashqi muhit haqidagi taassurotlarini sezgilar orqali idrok etadi, shu yo'sinda uning tafakkuri, ulg'ayib shakllanadi.

N.I.Novikov bashariyat farovonligini ko'zlab, yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng targ'ibot etish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda Ta'limlamoq zarur deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyada yosh davrlari psixologiyasi fanining rivojlanish tarixida K.D.Ushinskiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha psixologiya fanining asosiy vazifasi Ta'limning maqsadini aniqlashga, Ta'lim-Ta'lim natijalarini to'g'ri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o'rinn tutadi deb aytadi. K.D.Ushinskiyning "Inson Ta'lim predmetidir" asarida pedagogik ta'sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik xususiyatlari, uning o'ziga xos tomonlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda N.F.Kapterev, N.A.Sikorskiy, AP.Nechaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, P.P.Blokskiy singari olimlar bu borada o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Ta'kidlash joizki, ayniqsa, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, AR.Luriya, A.N.Lesyp'vi, M.Ya.Basovlar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqeい singari ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kun yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining tayanch tutunchalaridandir.

O'tgan asrning o'rtalarida vujudga kelgan turli nazariyalar, qarashlar, o'quv faoliyati va Ta'limning talqinlari (D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Gal'perin, Z.I.Kalmikova, N.F.Talizina, D.B.El'konin I.V.Davidov, L.V.Zankov, L.N.Landa, A.A.Lyublinskaya, N.V.Kuz'mina va boshqalar) nafaqat pedagogik tajribani, balki psixologiya fanining bu tarmog'ini ilmiy-amalii boyitishga asos bo'ldi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda o'quv materialini o'zlashtirishning mexanizmlari (S.L.Rubinshteyn, N.Kabanova-Meller, L.B.Itel'son); xotira haqida (P.I.Zinchenko, A.A.Smirnov, V.Ya.Lyaudis); tafakkur (N.F.SHemyakin, AM.Matyushkin); idrok (Yu.B.Gippenreyter); bolalarda nutqning rivojlanishi (M.I.Lisina, A.A.Venger); shaxsning rivojlanishi (B.G.Anan'ev, L.I.Bojovich, V.S.Muxina); muloqot va nutq (V.A.Artemov, A.A.Leont'ev, V.A.Kan-Kalik); psixik rivojlanishning davrlari (P.P.Blokskiy, A.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, D.B.El'konin, B.G.Anan'ev, A.V.Petrovskiy); o'quvchilarning aqliy faoliyati va iste'dod muammolari (A.A.Bodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Krutetskiy)ga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar bu fanning yanada rivojlanishiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida g'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy-nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldidir. Bu borada E.Meyerman, S.Xoll, K.Byo'ler, E.Klapared, E.Dyurkgeym, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, Dj.Bruner va 6oshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Olmon psixologi E.Meyerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki tazyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha eksperimental pedagogikaning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilmog'i darkor.

Amerikalik psixolog-olim S.Xoll har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenetda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinctlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Xoll o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olga suradi.

Filogenet - (yunoncha, rhule- qabila, generis - kelib chiqish, paydo bo'lish) - muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni

Shveytsariyalik psixolog E.Klapared "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

E.Goziyev. Tosh. 2014y. Ontogenez psixologiyasi

Frantsuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg'ayish - kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rinn tutishini uqtiradi.

Yana bir frantsuz psixologi P.Janening fikriga ko'ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg'ayshshshi belgilaydi. U aloqa sifatida hatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik psixolog Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan Ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishnint takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayk, Dj.Uotson, F.Galgton, A.Bine, A.Anastazi, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida Ta'limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli Ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rinn egallaydidar. Bu Ta'limotlar hozirga kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda.

Respublikamizdagi yetakchi oliygochlarning kafedra va laboratoriylarida yosh davrlari va Ta'lim Ta'limning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jihozlangan sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Mazkur muammolarning yechimi hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida bu boroda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Voxidov, M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.I.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Jumladan, o'quvchilarning texnik qobiliyatları, o'quv motivlari, zamonaviy muktab o'quvchisining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari A.Jabborov, F.I.Xaydarov, M.M.Mavlonovlar tomonidan, tafakkur va Ta'limni boshqarish muammosi E.G'.G'ozievning tashabbusida, istebdodli o'quvchilar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilmoqda.

Fanning vujudga kelioshi va rivojlanishi jarayonida unga ta'sir ko'rsatib kelgan barcha nazariyalar, ilmiy va amaliy ma'lumotlar, yo'nalishlar hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda va fanning istiqbolida muhim ilmiy-nazariy manba hisoblanib qolishi, tabiiydir.

### **3-Mavzu: PSIXIK RIVOJLANISH VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI.**

#### **REJA:**

1. Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishining sharoitlari. Biologik va ijtimoiy omillar.
2. Psixik taraqqiyot va Ta'limning o'zaro munosabati,
3. Yosh davrlari psixologiyasida yosh davrlarini tabaqalash muammolari.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish - yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsiniig psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishniig zarur shartidir.

Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomonidan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliv nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomonidan esa faoliyatiing ongli sub'ekti na ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, ahloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, odam psixikasi va hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiat biologikmi yoki inqilobiy xarakterga egami?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. SHu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lган turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim- biogenetkk kontseptsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik kontsentsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX-asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tu-ma tabiat haqidagi Ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur Ta'limot inson psixikasining barcha umumiylari va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'mi yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyondalarini inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik Ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng Ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdarlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o'quvchilarning "tabiiy kuchlari" va "tug'ma mayllar"ini psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, Ta'lim-Ta'limning ta'siri - ikkinchi darajalidir, deb aytadi.

Avstralaliyalik psixolog K.Byo'ler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki ahloqiy rivojlanishi ham nasliy tomonidan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.D'yui - inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va

psixik xususiyatlar Ta'lim jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi, Ta'limning esa miqdorini belgilib beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog Z.Freyd mazkur oqim namoyondasi sifatida shaxsning faolligini, uni xarakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinkтив mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinkтив mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinkтив mayllar jamiyatda huddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi, Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinkтив mayllarni (ya'ni, jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning Ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekslar»ga birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu «komplekslar»ga namoyon bo'lishidir. Z.Freydning Ta'limotidan, uning ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ'ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi ilmiy asosga ega emasligini e'tirof etish mumkin.

Bunday Ta'limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog'liqdir, deb ta'kidlashadi.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir Ta'limot - sotsiogenetik kontseptsiya qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'naliш o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr frantsuz olimi K.Gel'vetsiy Ta'limotidan boshlangan. K.Gel'vetsiyning Ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va ahloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, SHuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq fakattina muhit va Ta'limning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan Ta'limotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sotsiogenetik kontseptsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlnana boshladи. O'sha paytda hammaning diqqat-e'tibori mo'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu hodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir qilmay qolmadи.

Sotsiogenetik kontseptsiya namoyondalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi, Bu Ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tugalib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Chunonchi, angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza paxta» o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza taxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ihtiyorlaridadir. SHuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Har ikkila yo'naliшning namoyondalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta'siri ostida, yoki o'zgarmas muhit ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgarmas narsa, deb e'tirof etadilar.

Ma'lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya'ni tashqi muhiddagi tayyor narsalardan

foydalansalar, odam esa tevarak-atrofidagi tashqi muhitga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'z irodasiga bo'yundiradi hamda o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi. Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasini rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir.

## 2. Psixik taraqqiyot va Ta'limning o'zaro munosabati

Yosh davrlar psixologiyasi fani zamonaviy Ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan,

- birinchisi - inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;
- ikkinchisi - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan Ta'lim-Ta'limning ta'siri;
- uchinchisi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyondasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lган muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o'z tabiatini jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. SHaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, ahloqiy fazilatları, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan Ta'lim va Ta'lim, azaldan berilgan, genetik jixatdan kat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, birinchidan, odam muhit ta'siri ostidagi passiv ob'ekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir, SHu bois tashqi hayot sharoiti tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lган o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri xaqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar xamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini Ta'limlash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O'z - o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdi. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi uchun muayyan darajadagi

biologik tuzilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni harakatta keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, inson psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidai, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Hech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rkoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda Ta'lim to'g'ri tashkil qilinsa xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipi vazmin bo'lgan bolalarda ham Ta'limlash mumkin va Ta'limlasa bo'ladi. Birok, birinchi holdagi bolalarni Ta'limlash ikkinchi holdagilarni Ta'limlashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni Ta'limlash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi.

Ikkinchidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha, biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ortda qolishlari mumkin. Mana shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini baravar rivojlanish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy kurtaklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham (shu sababli, masalan, Ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu kurtaklarning o'zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan Ta'lim va Ta'lim, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqidir: 1) miyaning biologik, organiq yetilishi, uning anatomiq-fiziologik tuzilishi jihatidan yetilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatadagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanishi o'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqidir va bu xususiyat Ta'lim-Ta'lim ishlarida, albatga, hisobga olinishi lozim, chunki Ta'lim miyaning organiq jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organiq jihatdan yetilishini muhitga, Ta'lim-Ta'limga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qatliy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, Ta'lim-Ta'lim va tegishli mashq, miya tuzilishining organiq jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda Ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi Ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Bu boroda nemis psixologi V.SHtern: Ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida Ta'lim va Ta'limning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: Ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq Ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. SHuning uchun aqliy jixatdan yetilish jarayoiiga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki Ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak.

Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlnana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish

jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, Ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'y sunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Ta'kidlash joizki, Ta'lim yetakchi rolni bajaradi, Ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda Ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, Ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtida o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy Ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U og'ga surgan psixik fuyaktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurban holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalananishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan “psixik tarahqiyotning eng yahin zonasasi” tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasasi» tushunchasi «Ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening Ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: “Bola taraqqiyotini hech mahal maktab Ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lмаган jarayonlardir, degan yo'naliшdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blońskiy Ta'limning bola taraqqiyotidagi o'miga alohida ahamiyat beradi. SHuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar, Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.Ya.Gal'perin, D.B.El'konin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, E.G'.G'ozievlar o'z tadqiqotlarida Ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingen taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, Ta'lim va Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lган tayyorlik bilan hatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir o'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomonidan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomonidan, atrofdagilarning unga

nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqeい to'g'risidaga ichki kechinmasi o'rgasida; katta odamlar hayotida to'la huquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasdigi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik, faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi - ziddiyat yo'qoladi. Birok, qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Rivojlashpn faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatları borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va Ta'limga bog'liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda psixik rivojlanishning notejisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto Ta'lim va Ta'limning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funktsiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'naliшlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilari vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlari va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organiq jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlari ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi murakkab taraqqiyot jarayonidir.

### 3. Yosh davrlari psixologiyasida davrlarini tabaqlash muammolari

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqlash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu insoi shaxsiii tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yorigadi.

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. SHu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqlash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shveytsariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funktsiyalari hamda uning davrlari haqidagi Ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

- 1) sensomotor intellekti - tug'ilgandan 2 yoshgacha;
- 2) operatsiyagacha tafakkur davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;
- 3) aniq operatsiyalar davri - 7, 8 yoshdan - 11, 12 yoshgacha;
- 4) rasmiy operatsiyalar davri.

Frantsuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri;
- 2) impul'siv harakat davri - tug'ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) his-tuygu davri (emotsional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;

- 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
- 7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqlash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan'ev singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o'zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqlash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqlash nazariyalarini tanqidiy tahlil kilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

Chaqaloqlik davri inqirozi.

Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagi inqiroz.

Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.

Maktabgata davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.

Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

Pubertat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqlash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar xaqida ilmiy va amaliy axamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli o'rinnar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqlash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidaga mulohazali va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leont'ev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli, nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

D.B.El'konin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratashni lozim topadi:

1. Go'daklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha - yetakchi faoliyat-bevosita emotsiyal muloqot;

2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - yetakchi faoliyat - predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o'yinlar;

4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qish;

5.Kichik usmirlik davri-10 yoshdan 15 yoshgacha-shaxsniyg intim (dilkash, samimiyl) muloqog;

6. Katga o'smirlilik yoki ilk uspirinlik davri -16 yoshdan 17 yoshgacha; -yetakchi faoliyat - o'qish, kasb tanlash davri.

D.B.El'koshsh tasnifini ko'pchilik psixologlar tomonidan e'tirof etalsa-da, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.Elkoninining mazkur nazariyasi yasixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muxim urin ^utadi,

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasini A.ALyublinskaya inson kamolotini yosh davrlarga ajratiyagda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflichay ifodalaydi:

Chaqaloqlik davri - gug'ilgandan bir oylikkacha;

Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 oshgacha;

Maktabgacha Ta'limgandan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;

Maktabgacha Ta'limg davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha; ;

Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;

O'rta maktab yoshi davri (uspirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha;

Katta maktab yoshi davri~15 yeshdan 18 yoshgacha.

Psixologiyaning taniqli namoyandasi V.A.Krutetskiy insonning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta'kidlaydi:

Chaqaloqlik (tugilgandan 10 kunliqkacha);

Gudaklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha); „

Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

Bogchagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);

Bogchl yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);

Kichik mакtab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);

O'emirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);

Ilk o'spirinlik yoki katta mакtab yoshi (15 yogadai 18 yoshtacha).

Yuqorida har ikkala tasnif puxtaligidai, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat'iy nazar inson kamolotani •1-o'la ifodalab berishta ojizlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllaniti bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, stuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyailari to'grisida nazariy va amaliy ma'lumotlar yetishmaydi. SHunga q;famay ular o'rtal mакtab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi;

1. Ilk bolalik (maktabgacha Ta'lim yoshidan oldingi davr) -  
tug'ilganidan 3 yoshgacha.

Bogcha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

Kichik mакtab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.

O'rtal mакtab yoshi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha.

Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17  
yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofigmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'naliшning ham oraliq jabhalar bo'lishy ehtimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va mакtabda bola holatining o'zgarigpi, Ta'lim va Ta'lim shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat ^urlari, organizmdagi ayrim Xo'susiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin.

Hozirgi zamon nsixologiyasida yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqlash maqsadga muvofigdir:

Ilk bolalik davri - tugilgandan 3 yoshgacha;

Bogcha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;

Kichik mакtab yoshi davri - b, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;

O'rtal mакtab yoshi (o'smirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;

Ilk o'spirinlik (kollej va litsey o'quvchilar)- 14, 15 yoshdan 17,  
18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidats g?sh davrlarini tabaqlashtirishning puxta, ilmiy-metodol-ogik negizga ega bo'lgan qator nazariyalar ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muqim o'rinn egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsada, hozir ontogenezi tula yoritishga xizmat qila bladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1.Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va xarakatlantiruvchi kuchlari xaqida ma'lumot bering?

- 2.Psixik taraqqiyot va Ta'limning uzaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
- 3.Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
- 4.Etakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
- 5.Yosh davrlarini tasniflab bering?
- 6.Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma'lumot bering?

### **3-Mavzu: SAXS SHAKALLANISHI VA PSIXIK RIVOJLANISH PSIXOIJTIMOIY NAZARIYASI.**

**Reja:**

- 1 Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi
- 2.Shaxsnинг ijtimoilashuvi muammolari
- 3.Shaxs va jamiyat.

Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi

Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning hamda egasi—sub'ekti hamda ob'ekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazaridan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiyl psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiyl psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblasa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni, ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'y sunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya, ya'ni ijtimoiylashuv muammosi bilan uzbek bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari va muammolari.

Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlilik sifatida odamdag'i dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyalidir.

Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvoringen motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) Elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'p incha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdag'i ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) Ijtimoiy ustnovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) Bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) Qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahif hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomonidan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar yoqadi. Lekin nima uchun xuddi shu asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaydi. O'sha guruhdan yangi bir kitob qo'lga kirganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo'ladi. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiatи juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob'ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi G'arbda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi xayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlarga bog'liqligini o'rganib, shaxs xulq-atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. Ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan — "attyud" so'zi bilan ifodalaydilar. 1942-yildayok M. Smit attiyudning uch komponentli strukturasini ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attiyudda uch qism bo'lib, bular kognitiv qism, affektiv qism hamda konativ qismlaridir.

Kognitiv qism — bu shaxsdagi attiyud ob'ektiga nisbatan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashkari g'oyalar, tasavvurlar, prinsiplar va hokazolar kiradi.

Attyudning affektiv qismi — bu o'sha ob'ektni hissiy-emotsional baholash bo'lib, yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi. Konativ qism yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismga esa shu ob'ektga nisbatan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi.

Lekin ba'zi olimlarda ustanovkaning aynan ob'ektga yoki vaziyatga nisbatan bo'lishi mumkinliga haqida ma'lumotlar ham bor edi. Xususan, Laperning 1934-yilda o'tkazgan mashhur eksperimenti bunga misol bo'lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni kuyidagicha edi. Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSh buylab sayohatga chiqadi. Ular hammasi bo'lib 252 ta mexmonxonada bo'lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashqari) iliq, samimiy munosabatnnng guvohi bo'lishadi. Ma'lumki, o'sha paytlarda irqiy belgi bo'yicha odamlarga tanlab munosabatda bo'lishar, xitoyliklar ham sariq tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan hamroh bo'lgan talabalarga munosabat bilan olimga bo'lgan munosabat o'rtaida deyarli farq sezilmadi. Sayohat tugagach, Laper o'sha barcha mehmonxona egalariga minnatdorchilik xati yozib, yana o'sha talabalar bilan borsa, yana o'shanday iliq kutib olishlari mumkinligini so'radi. Javob faqat 128 ta mexmonxona egalaridan keldi, ularning ham bittasida ijobiy javob, 58 % da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarda noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ijtimoiy ustanovka bilan mehmonxona egalarining real xulq-atvorlari o'rtaida farq bo'lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha — ijobiy namoyon bo'lganligi aniqlandi.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik

stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob'ektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovland fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun rag'batlantirish yoki jazolash tizimini o'zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, ob'ektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'p chilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yondatish uni ma'lum guruhlarning a'zosi, konkret sharoitida o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

#### Shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning ahloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatları, hissiy kechimmlariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rabi turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

#### Ijtimoiy normalar

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriysi, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rini bo'shatishi - norma va hakozo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'p chilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan harakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

#### Ijtimoiy sanksiya

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va raqobatlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rini bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'p chilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan

o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib olib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

### Ijtimoiy rol

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi.

Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birqalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning harakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, ahloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'p ligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqeい - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatlari bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan roller ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomonidan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomonidan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

### Shaxs ijtimoiylashuvi.

Har birimizning jamiyatdagi o'mimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializaqiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallah va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexaniq tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyonи aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub'ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvching har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart - sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (boqcha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygochlari, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi. Bu institutlar orasida bizning

sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim Ta'limlovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga mакtab va boshqa ta'lim maskanları kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va Ta'lim jarayonları maxsus tarzda uyqunlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, mакtabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv Ta'limviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi Ta'limlovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman mакtabdagi shart-sharoitlar, umumiyl muhitning Ta'limlovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub'ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergen o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobjiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lган, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhittagi ijtimoiy normalar harakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'p incha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, soqlom ma'naviy muhit,adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Shaxs sotsializatsiyasi to'g'risida gap ketarkan, aytish kerakki, sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u — individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj hamda shaxs bo'lishiga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsiyal muloqotga ehtiyojning borligi).

Shaxs sotsializatsiyasi yoki shakllanishining o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faaliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalg etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabxasi, soxasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoi-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'mini tasavvur qilishga erishadi.

3) o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqlilagini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish-xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining ushbu bosqichlari mavjud. Masalan, birinchi bosqich—mehnat faoliyatigacha bo'lган bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi. Ikkinci bosqich — mehnat faoliyati davri — bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni Ta'limlayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich — mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu jarayon ro'y beradigan sharoitlar — muassasalar xususida gapiriladigan bo'lsa, turli davrlarda oila, bolalar muassasalari, maktab, boshqa dargohlari, mehnat jamoalarining roli nazarda tutiladi.

Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi

Psixoglarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustakovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lган vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo'ladigan hamda muloqotda ko'rindigan sifatlar guruhiga bo'linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perceptiv himoya sifatlari, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lган ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba'zi mualliflar perceptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A.Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyon, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamrok xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandnr. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi.

### **Ekstrovert va introvert toifali shaxslar**

Bu tiplar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, ekstrovert — o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojidir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o'z fikr-istiklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin ("Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?", — deb uylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta kirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga keladi, o'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, "mish-mishlar"ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo'limganday apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin.

Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'yash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustanovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2—3 kishidan ortiq bo'limgan guruhnini afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan-ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham "shaxsiy" mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko'radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o'z "Men"ining boshqalarga o'xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi, qiziqsan narsasi bilan umrini oxirigacha bo'lsa ham shug'ullanishga tayyor, umr yo'ldoshiga sodiq, vafodor. Do'stlarga ham xuddi shunday.

### **Mobil va rigid toifali shaxslar**

Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish me'zoniga ko'ra farqlanadi. Masalan, mobil tip har qanday ish bilan mashg'ul bo'lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko'chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi. Suhbat mavzusinn ham tez-tez o'zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qatiyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladn. Chunki u o'yamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo'lagiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdag'i suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni yaxshi ko'radi, gapini bo'lishlarnni sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo'lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko'radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

### **Dominant va tobe toifali shaxslar**

Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlasmaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo'lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning bo'ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o'zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo'yniga olmaydi. Dominant tip — qatiyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo'lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni

bo'lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo'yishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant bo'lishsa, unda ular o'rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallahшиб qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko'nish, unga o'z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Tobe tipli shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallahshadi, lekin yomon ko'rib qolgan odami bilan umuman gapplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin o'zining dadilligini ko'rsatishi, ochiq gapplashishi, ba'zan e'tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqli, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko'zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo'llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo'lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo'yniga olishni istamaydi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini ko'ramiz. Hayotda ko'pincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni tiplarga bo'lamiz. Bundan tashqari, bir marta ko'rishda odam haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Uni turli sharoitlarda bir necha marta kuzatish lozim.

Шахс

Ижтимоий ва шахслараро муносабатларнинг маҳсули, онгли фаолиятнинг субъекти бўлмиш индивиддир.

Ижтимоий санкциялар

Нормаларнинг шахс хулқида намоён бўлишини назорат қилувчи жазо ва рағбатлантириш механизmlари бўлиб, уларнинг борлиги туфайли шахс ҳар бир алоҳида вазиятларда ижтимоий хулқ нормаларини бузмасликка, жамоатчиликнинг салбий фикри обьектига айланиб қолмасликка ҳаракат қиласди

Ижтимоий рол

Шахсга нисбатан шундай тушунчаки, унинг конкрет ҳаётий вазиятлардаги ҳуқуқ ва бурчларидан иборат ҳаракатлари мажмуини билдиради.

Ижтимоийлашув жараёнида шахс фаолиятини йуналтириб турадиган ва реал вазиятларга нисбатан турғун, барқарор мотивлар мажмуга эга бўлишлик шахснинг йўналганлиги деб аталади.

Йўналганлик

Йўналганликнинг энг муҳим таркибий қисмлари

Масъулият;  
Мақсад ва идеаллар;  
Кизикиш ва дунёқараш.

Шахс дунёқарashi ва эътиқодини ўзgartiruvchi omillar

Маънавият ва маърифат;  
Мафкура;  
Оила;  
Ижтимоий установка:  
Элементар установка;  
Ижтимоий установка;

Ижтимоий норма

Шахс ҳаётида шундай категорияки, у жамиятнинг ўз аъзолари хулқ - авторига нисбатан ишлаб чиқсан ва кўпчилик томонидан эътироф этилган ҳаракатлар талаблариdir

Ижтимоий институтлар

Ижтимоийлашув жараёнларининг рўй берадиган шарт-шароитларини ижтимоий институтлар деб аталади. Оила, маҳалла, расмий давлат муассасалари (боғча, мактаб, маҳсус таълим ўчоқлари, олийгоҳлар, меҳнат жамоалари) ҳамда норасмий уюшмалар, нодавлат ташкилотлари уларга киради

Инсон томонидан иҗтимоий тажрибани эгаллаш ва ҳаёт - фаолият жараёнида уни фаол тарзда ўзлаштириш жараёнидир. Иҗтимоийлашув - ҳар бир шахснинг жамиятга қўшилиши, унинг нормалари, талаблари, кутишлари ва таъсирини қабул қилган холда, ҳар бир ҳаракати ва мумомаласида уни кўрсатиши, шу иҗтимоий тажрибаси билан ўз навбатида ўзгаларга таъсирини ўtkаза олиши жараёнидир

### Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi

Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning hamda egasi—sub'ekti hamda ob'ekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazaridan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiyligi psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differentials, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblasa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti deb qaraydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollahayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natyajada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim Ta'limchilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli magshulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol ham berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. SHuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qiljangan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminai 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi, Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham mikdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

#### 4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - bu 3-4 yosh oraligida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqidir;
- ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;
- uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning Ta'lim-Ta'limsi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. SHaxsiy muloqot motivlari - bu bolaning tashvishga

solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lган motivlаридир. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallah bilan bog'liq bo'lган o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarda asosiy rolni egallahga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rmasligida, nima bulganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rindi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallah bu yoshdagи bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yopshning oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lган shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqat-e'tibor, mehribon bo'lishi xususiyatidir. Katta yoshdagи brlalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oraligida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning uzlariga beradigan baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok e'shshga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. o'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'ld-anini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda qanlay bo'lган edim?", "Men katta bo'lginimda qanday bo'laman?" singari savollarida ko'rindi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlari ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta Bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab, bolada, ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik. va tashabbuskorlik kabi ahamiyat shaxsiy xususitlar rivojlanma boslaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boslaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagи bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'zin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'limganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar, Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar hissiyoti va uning o'sishi. Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagи bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organiq ehtiyojlarning qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgai biron topshiriqni bajarganlarida mammunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yanlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning Bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi, Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

### 5. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi

Bolaning maktabda muvaffaqiyatlari o'qishi ko'p jihatdan o'larning maktabga tayergarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi, Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning ogirligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, kon'kida yugurish, changida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo'yicha mashgulotlarda bu yoshdagi balalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar. SHuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasaltshklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tabor berish, shuningdek, umurtqa pogonasining to'gri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kyattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali usishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari tuliq rivojlanmaganlik sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, o'z-uzidan bolani uziga niebatan ishonchini yoki uqishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelyuSHt mumkin. Keyingisi bolaning aqliy tayyorgarligidyr, Kupincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning ma'lum bir dunyoqarashi, jonli tabiat, yansonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tuiguniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan Ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin suz boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaniyang maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy kursatkichi bula olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslays olish, taxlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bshshsh jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va uzlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'llib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagи pryodmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. SHuni alohida ta'kidlab utish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va kurgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi uquvchilarning ,aqliy rivojlanishida ham asosiy funktsiyani bajaradi. Bu borada bolada ma'lum bir kunikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muximdir.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatlari uqishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoyy-psixologik tayyogarligiga ham bogliq, Maktabga uqish uchun kelayotgan bola yanga ijtamoiy mavqeini - t^fli majburiyatlarini va huquqlari bulgan va unga turli talablar quyiladigan - uquvchi mavqeini olish uchun tayyor bulmog'i lozim. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman, "Maktabda uxlatishmaydi?", "Maktabning tashqi ramzları, shubhasiz maktabbdagi bolalarni juda qiziqtridi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatlari o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi", "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi kuraman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman". Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, Bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlarini bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat xisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, uqich-uvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qushila

olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha oliish zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar uqishdagi asosiy qiyinchilik, ko'gshncha bu yoshdagi bolalar o'qntu'ch'ixk uzoq vaqt davomida tinglab olmaydilar. uquv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini to'plab olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga xam bogliq. CHunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotaa kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar, Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapiroayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshitia oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsiyonal motivatsion yo'naliish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'naliishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantakiy va boshqalar) bilan ishslash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlari^,a; ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi, Biron bir"narsani idrok qilish jarayonida bu sintez nertseditiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va holatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushirishning ichki va tashqi tuzilmasini boglay olishda ko'rindi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. SHuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. biaish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallati asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jaraeni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi Ta'lif jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellektya, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

## **6-Mavzu: KICHIK MAKTAB YOSHI DA VRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.**

**Reja:**

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi.
2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning akliy rivojlanishi.
- 3.O'quv faoliyatining xususiyatlari.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi.

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgachd davom etadi. Bu davrda bola maktab o'quvchilariga qo'yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. SHu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan

boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab Ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning muktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola - o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor muktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, uiga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni muktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqeい o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlanini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishta o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining muktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishnda to'liq ijobjiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rinni egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlar bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bulgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. SHuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi, Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshsh bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab Ta'limiga bog'chada Ta'limlanyotganida tayyorlanadi.

## 2. Kichik muktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi

Muktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlataadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumlalarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi.

Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish mактаб yoshidagi o'quvchilarda berilgan Mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot toplash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik mактаб yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdaga insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki, uning xatti-harakati, o'yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir o'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatlari o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga haraqt qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlanadir. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildira oladi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik mактаб yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini taddiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomgir qanday yogishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo'lgan masafoni bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», qanday qilib?», «nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi, Bu yoshdagi bolalar asosan o'zлари ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdaga bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga gayanib, Ta'lim olishga senzitiv bo'lgai davr hisoblanadi, So'zsiz bugungi jamiyatamizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bshshmlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kaggalar tomonidan tuziladi. CHunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi -individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda mutnazam ravishda o'qishga o'tishi uning agrof-xayotdagi narsa-xrdisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash taxlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan mактabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik mактаб yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funktsiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funktsiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridaga ixtiyoriylik. irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga kelshni mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlaigich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilarini diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning yetarlicha barqaror emasligidir. SHuning uchun ham ular o'z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlar ustida uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantiri. shga qulay sharg-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdaga bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi, Kichik mакtab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, sharthli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi, Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'Igan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin, Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasaevur harakatlar qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarda 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdaga idishlarda suv miqdorini belx-ilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini ,bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'grilagini bilganlar. Kichik mакtab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotanlarida rivojlanadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. SHu bois kichik mакtab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetdardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar zamirida ularning qo'rquvni yengkshi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin, Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pinta xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida Ta'limlanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'grilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatları motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi, Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining

shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetta chiqo oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### 3. O'quv faoliyatining xususiyatlari

Kichik mакtab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emotсional munosabagda bo'ladi. SHu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar toplashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi, Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayayn darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilotsa tashkil qilingan Ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkuri jadal rivojlanadiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab Ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijgamoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rmini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallah, o'zlapggirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik mакtab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallahsga qaratilmay, balki faqat o'huvchilik istagini aks etgarishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfelia, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlang stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

Kichik mакtab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tutpunadi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashgulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishy bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. SHunda bola aqliy mehnat ko'iikmasiga ega bulmasa uning o'qipgandan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. o'qituvchi esa bunday holiing oldini olish uchun bolaga Ta'limning uyindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlansh kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallahsga qiziqishi o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bogliqdir. Bu his o'qituvchining ragbatlantarishi bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili., istak va ishtyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xnzmat qiladi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V.V.Davidov bo'yicha) tanishtarishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishn juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'tri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatgi-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. o'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdag'i masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar va ularni- egallagan zax.oti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlangich sinf Ta'limi dasturlaridagi ko'pgina Mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yunaltirshya orqali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning k.ursatishicha, boshlangich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagи ayrim yo'l va tushunchatshrni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv, harakatlarini bajarishga o'rgatilinmaganligining natijasidir. o'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chyqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatsh-harakatini tahlil etishi va anglanshni rivojlanadiradi. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda

aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'tri tashkil etilgan Ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari; bu aqliy taraqqiyot va uquvchanlikning birmuncha orqada qolishidir N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulgaygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, uquvchanlik esa birmuncha pasayadi, Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanliga, albatta, o'smir va uspirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va uspirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvtaniyag muomala va muyaosabat uslubi o'quvchishshg xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi, uqituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor, O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida belaning katgalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-on" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. CHunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor mактабга kelgan bola hali uzini tuliq anglashi va o'zi xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xagga-harakatlarini baholashi mumkin. o'z xatga-harakatlarini boshqalar bilan moslatsggarishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlangach sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik xrlatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan buladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-uzidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyatni muvaffaqiyatini ham belgilab beradi, o'qituvchining uquvchilarga ta'sir kursatashi va munosabatining qo'yidagi uslublari mavjud. Avtoritar uslub: bu qatgiqu'llik bulib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qatshqoo'lliq qilayottanini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarini o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. o'qituvchi dars davomida o'quvchilarilan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarining qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasid asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan hoddha asosan o'qituvchining fikri singdiriladi, o'quvchilar bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar, Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlilik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlilik o'ziga nisbatan ishonchszlikni keltirib yaiqaradi.

Imperativ uslubdagi o'qituvchining o'quvchilar o'qituvchi sinfda bo'limgan vaqtarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'limganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu, asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining "ustozim meni yaxshi ko'radi" degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjuddir.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdag'i intizom majburiy emas, balki muvafaqqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvafaqqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. SHu bilan birga o'zining faoliyatni natijalariga qiziqish o'yg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilnshi lozimligini anglatadi o'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir

ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo'q bo'lган o'qituvchilarga xos bo'lган uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z Ta'limlanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va Ta'limlash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub xisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotSIONAL zo'riqtirmaydi, lekin uiing shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik mакtab yoshidagi o'qo'vchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular jismoniy, psixik va ijtimoiy faoliykdir.

Jismoniy faoliy - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lган turli mavjud to'siqlarni yengishdagi tabiiy ehtiyojidir. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar, Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bogliqdir. CHunki, psixik sogлом bola harakatchan buladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli xech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faoliy - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagи predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilipgga nisbatan qiziqishdir. Psixik faoliy deganda, bolani o'zini bylshnga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi, Məktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlangach sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'duvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lган o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. o'quvchini qanday qilib mакtab qoidalariga buysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala-munosabat uslubining ahamiyati juda katta. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagи o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda uqituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mexribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. SHu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lган o'quv faoliyati o'hituvchi shaxsi va uquvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda katta.

#### 4. Boshlantich sinf uquvchilar shaxsining shakllanishi

O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqag bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlariyai rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lган o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faolyyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lган shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lismiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlarini erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lism nihoyatda muhim. Kichik mакtab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotSIONAL zo'riqinshi beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik mакtab davrida, shuningdek o'smir.shk davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik mакtab yopshdagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va

bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlar boho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'gridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshldagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki tsast bo'lishi mumkin. Bu yoshdagilardan mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida Ta'limalash uchun yaxji imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishiishni belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelij va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mexnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati uyaga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik. Xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bogliq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq, xususiyatlari bo'lsa, unda asta-sekintshk bilan bo'ysunuvchanlnk, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishyga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan, kim.l, argadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. SHuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratash kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7-11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlari angloy boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi xam jadal rivojlna boradi va mustahkamlana boshlaydi, Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilinshga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatiii o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi, o'smirlilik davrining boshlariga kelib, juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rindi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Bu yoshdagilardan idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga Ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidaga bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishish mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu mo'nosabatlardan kattalar Ta'lim-garbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagilardan soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
2. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo'llari qanday?

3. Bolalar intellektual rivojlaiishida kichik maktab davrining ahamiyati.
4. O'quv jarayoni davomida yuzaxa keladigai muammolar;
5. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar.

## **7-Mavzu: "O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI"**

### **Reja:**

O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari.  
O'smirlarning intelektual rivojlanishi.  
O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi.  
O'smirlik davrida yangi xislatlarning paydo bo'lishi.

#### 1. O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari

O'smirlik 10~11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'la^an davrni tashkil etadi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5~sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katga ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivodshda keskin o'zgarigalar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bo'bilai bogliq ravishda tanadagi barcha a'zolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, xo'jayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasiniig o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiysi faollashadi. O'ning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muxim ich.ki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini ko'chaytaradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balogatga yetish (jinsiy organlarnint rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. O'lar o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarni ma'lom darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladila^ Bu hrlatny oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin, o'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolytga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. GBu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrashgan, lekin kattalar t^ayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. o'smirlik davri «o'tguyag davri», »Krizis davrya, «qayyin dayar» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rimishlari bilan xarakterlanadi. CHunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash. hollari ham kuzatiladi. o'z davrida L.S, Vigotskky bunday holatni «stsijik rkvojlanishdagi krizis» deb nomlaganG! o'smirlik I yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy "yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir, ko'rsatib, bo' ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. o'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos.

Kattalarga nisbatan yovuz munosabatning paydo bo'lshpi, noxush xulq-atvor alomatlari jinsiy yetilish tufayli paydo bo'ladi belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir kursatadigan, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqeい tufayli, kattalar bilan munosabati, mакtab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni uzgartirish yo'li bilan usmirlarning xulq-atvoriga to'gridan-to'gri ta'sir ko'rsatash mumkin. usmirlar nihoyatda taqlidchan bulib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan buladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladi. SHuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tangiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlyak o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga. sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aqsariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. SHuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu

davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini qulay his qiladi. Bunday holatlarga tushgan o'smir juda g tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bogliqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeい o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning . ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda uzidan qoniqmaslik hrlati kuzatiladi. SHuningdek, o'zi haqidaga mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'tri kelmayotganligy o'smirni asabiylashishiga. olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi m%kyn. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrrfdagilar, kattalar, shuyingdek ota-onasiga qartssh chiqayotynligini anglay olmayotganliga tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va usmirlik davri krizisi deyiladi.

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat - bu uqish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. o'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallahshdir. o'smirlar mo'loqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi.

O'smirlarshshg ota-onasi, katgalar bilan qiladigan muloqoti ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan haq-huquklarini cheklashl.ariga, qarshilik va e'tirozlariga qattiq qayguradilar. Lekin shunga qaramasdan, u, muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga zhtayoj sezadilar. Birgaliqdagi faoliyat o'smirga katgala.rni yaxshiroq tujunishlari uchun yordam beradi, o'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayottan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sez.adi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. o'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan mo'omala-munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. o'smirlar mo'loqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. o'smirlik davriga kimningdir xa^ti-harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha o'lar o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlidchanlik qiladilar.

Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik, albatta, kattalarning ham muloqot va munosabatida mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotSIONalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruxida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. o'smir o'z guruhiqa bogliq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smilda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. o'smir yoshidagi bola uchun do'st tanlash juda katta . ahamiyatga ega. o'smirlik davrida do'st juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'starning hol-ahvol so'rashyashi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga utirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday Jo'da yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sez^dilar. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, Ta'lim berishi uchun eng qulay sharoit '—, bu umumiy mehnat bilan shugullanishidir. Agar kichik yoshdagilari bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa kachta o'smirlar ka.ttalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushunadigan va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda o'lar to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshishshk ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatni ham yuzaga keltirishi mumkin, Bu holat kupincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'lувchi oilalarda uchraydi. Bunday oilalarda Ta'limlanayotgan o'smirlar hayotida mustaqil holda harakat kilnshlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatyushg o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagи muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar. o'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar

bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqeい o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin xamda damga kamroq vaqtlanini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlna boshlaydi. o'qish o'smirlar hayogida katta o'rinni egallaydi. o'smirlar uqishidaga asosiy mogiv: bu ularning ulg'ayayotganlikligini his ettiradigan, anglatadigan o'qish turlariga tayyorlanyunlaridir. Ular uchun mashgulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlargshig fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortirishlari o'qituvchining uquv materialini tushuntira olish mahoratiga bogliq. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobjiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning hayotay rejalar, kelajak kasbi va ideali bilan bogliq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga aloxida ehtiyoj sezadilar va bunga xarakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim usmirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. o'smirlarning o'quv materiallarini faqat mexaniq xotiraga asoslanishlari xalaqit berishlari mumkin. Bu davrda uquvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtarishi qiyin. Buning uchun o'quvchi o'quv materialining mazmunini tahlil qilshpi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muxim. Bu davrda bolalarning idroki, diqqati va tasavvurlari o'zgaradi, lekin bu o'zgarish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan xolda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagalarga sezilarli darajada buladi. o'smirlilik davrida bolani anglashi va o'z-uzini ayglash darajasi kengayadi va unda boshqa odamlar, olam haqidagi bylimlari chuqurlashadi. o'yin faoliyati asta-sekin. kamayib, yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. usmirlilik davrida uz faoliyatini nazorat etash rivojlna boshlaydi va uzini-uzi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda, usmirlilik davri psixik rivojlanishda keskin burilish Davri xisoblanadi.

## 2. O'smirlarning intellektual rivojlayishi

O'smirlilik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan suz boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqeа va hodisalarining mazmun mohiyatini anglashlari xdsobiga bo'ladi. Bu davrda usmir tyal yordamida atrof-borliqni aks ztgarilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini xam belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi, Aynan usmirlilik davridan boshlab, inson aynan nuxq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi, o'emirni kupinchha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari - «Qanday qilib to'tri yozish kerzk?», «Qanlay hilibyxshiroq aytish mumkin? kabi savollar juda qiziqtiradi. o'smirlar maktabdagи o'qituvchilar, katgalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televiedenie diktordari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondai o'z nutqnni nazorat etishga urgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarni buzinglari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va moxiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallah borasida o'smir uchun uqituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab Ta'limi usmir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Billgsh jarayonlarining rivojlanishida nutq ham og'zaki, ham yozma mavjud bo'lishi bilan xam kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagи o'quv jarayonlarining to'gri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining tugri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishta harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlilik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan bopglab to 9-sinfgata o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, musqaqil raviieda nutq va chiqishlar tayyorlash, ogzaky mulohaza yuritish, fikr

bildirish va ularni asoslab berishgacha" o'zgaradi. Yozma nutq xam yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin Mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bogliq holatida amaLga oshiriladi. 5-6 sinflardagi o'quvchilar ogzaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladalar,

O'smirlilik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bula boshlaydi. CHunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdag'i boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olknishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Onda dedujtiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, chIjtimoiy hayot uch narsanyang ta'siri — tyal, mazmun, tsoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z~o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11~12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda Xo'ddi katgalar sshetari keng qamrovli taxlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olshii, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini xam rivojlanishini belgalab beradi. O'smirlilik davri yuqori darajadagi intellektual faoliy bilan farklanadi. Bu faoliy o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini n^moyish etish, shuningdek, ulardan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. o'smirning katgalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida b^adi, Bu yoshdag'i bolalar turli\* farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobtsl variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodi sharoitiga o'tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oyshoqda.

Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

- tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar, Ko'rsatilgan barcha sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin, Bu sifatlarni IT™ sinfdanoq rivojlantira borish nrhoyatda muhim. o'smirlilik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi, umumiyo foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. o'smir yoshdag'i bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqitradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob^kitob qilib borishga yo'llash orqalj amalga oshirish mumkin. o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez yo'llab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan yechishning umumiyo qoidalariiga o'rgatib borish mumkin. o'smirlilik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li xisoblanadi, O'smir shaxsida va uning bilishta qiziqishidagi o'zgarishlar uzaro bogliq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mo'staqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.

O'smirlilik davrida diqqat, xotira, tasavvur to'la mustaqillik kasb etib, endi ularni o'z ifodasiga ko'ra boshqara oladigan bo'ladi. Bu davrda qaysi yetakchi funktsiya (diqqatmi, xotirami yoksa tasavvur) ustunlik qilayotgani yaqqol namoyon bulib, har bir o'smir o'zi uchun ahamiyatliroq bo'lgan funktsiyani e'tiborga olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu funktsiyalarning rivojlanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

V) Diqqat. Agar kichi-k maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik ' qilsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi, Dars davomida intizomning bo'zilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun axamiyatli bo'lган va yuqori natajalarga erishishi mumkin bo'lган faoliyatlarga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko!'arish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. SHuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diq-qatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, o'smirljk davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi. Aynan 13-14 xamda 16 yoshlarda charchash chizigi keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va, voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi diqqatning ko'rini!yalariga o'smirlik erishish va yo'qotish bo'yycha to'la qarama-qarshi bo'lган davr hisoblanadi.

### 3. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi

Jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta'sir o'tkazadi. Lekin, bu bevosita ta'sirdir. Sotsial omillar esa qo'yidagilardir: kichik mакtab -yoshidan o'rtal mакtabga o'tash, ya'ni yakka o'qituvchi rahbarligidan ko'pchilik o'k,i1uvchilar tasarrufiga o'tish va muloqotdagi o'zgarishlar ijtimoiy foydaln ishlarni kengaytirib borish, mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish, shu bilan birga bolaning oiladagi o'rnii ham o'zgaradi. O'shbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini usib borishi munosabati bilav o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, u endi oilaviy muammolar muqokamasida ham ipggarok eta boshlaydi. Katta o'smirlarga nisbatan kichik o'smirlarda iaydo bo'ladian kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilishiga emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-on, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-kuy, ya'ni sotsial jaroitlar ta'siri bilan boglash zarur.

Shu sotsial sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iqlimi o'zgartirish bilan, kichik o'smirdagi yomon xulq-atvor, o'jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiiy xislatlarning oldini olish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar kichik o'smirdagi bu o'zgarishlar urushqoqlik va salbiy alomatlar o'jarliklarining ildizlari qaerdan kelib chiqadigan va nimani bog'langanligi, nimaning ta'siri ekanligi bilmay turib, noto'g'ri tashxis va xulosalar keltirib chiqaradilar va bu, aksariyat holda fojiaga olib kelishi mumkin.

Aslida esa bu o'smir yoki mакtab yoshidagi bolalarning psixik holatlarini va psixik rivojlanayotganliklarini hisobga olish va psixik muammolarini erkin va to'tri yechimlari uchun yordam berish, ularni aqliy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlar yordamida «ularga psixologik yondashish zarur va muximdir. Kichik o'smir yoshdagilar bilan ishlayotganda o'quvchining har bir tashqi va ichki reaktsiyasi ortida uning o'z psixologik sabablari borligini bilish muximdir. Bu "mvAaniyatsiz", "zararli", "tushunib bo'lmaydigay" deb nom olgan xatti-harakatlar bir qarashda shunday baholanadi, lekin bu xatti-harakatlar shaxs qaror topishi maxsus bosqichi uchun xos xususiyatdir. Kichik o'smir psixologik "mexanizmi" sxematik ravishda quyidagicha baholanadi, Endokrin garmonlarini paydo . bo'lishi va ularning markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'lган jinsiy yetilishning boshlanishi bolalarning aktivligini jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi hamda bolada o'zini kattalardek xis etish, mustaqil bo'lish tuyg'ularini tuyush uchun ^uday shart-sharoitlarni olib keltiradi. Biroq, psixik rivojlanishni bu bosqichda ham bola hali mustaqil harakat qilishga to'la tayyor bo'lmaydi. Asosiy ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri o'z mustaqilligini imkoniyatidan ortiq darajada baxrlashdir. O'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash bilan kichik usmirning psixik imkoniyatlari o'rtasida tafovut paydo buladi. Bu ziddiyatni hal etilishi qanday sodir bo'ladi va u bolani tashqi ko'rinishi xulq-atvorida qanday namoyon bo'ladi?

Ma'lumki, har bir bolaning munosabatlari aniq ishlarda ko'rindi mustahkamlanadi va qayd etiladi. Bola o'zidagi mustaqillikni shakllantirish uchun o'zi mustaqil ishlarni bajarishga

to'tri keladi. Lekin, ikkinchi tomondan bir marta mustaqil ish bajarish o'chun iste'moliy shartmnaroitlardan holi bo'lishga harakat qiladi. Lekin mustaqil harakat qilish uchun bola boshqa mexanizmlarga ega emas. Bular o'smirning o'z kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligi, o'z oldida turgan va uning natijasini aniq tassavvur eta olmaslik alomatlardir. Bu belgilar mana shu yoshda kishini mustaqil harakat qilishga qodir bo'lishga, ayni hollarda tevarak atrofdagi kishilarga qarshi borib, o'zini haq ekanligini qattiq turib himoya qilishga, boshqa hollarda esa vaziyatni vazminlik bilan qabul qilishga davat etadi, Kichik o'smirda o'z-o'zini surzyaat qilish va o'zini antlashni shakllantirishni bir qancha yo'llari mavjud. Masalan: bu davrda katgalarga taqlid qilish yoki oilada o'z hurmatini talab qilish, o'z so'zini o'tkazish, o'zini ho'rmagli, obro'li katta yoshli kshdini obraziga o'xshatib rivojlantirish kuchli bo'ladi. Ularga biror so'z yoki tanbeh bilan murojaat qilsangiz-u o'zini mustaqil fikrlay olishi va biror ishni albatta uddasidan chiqa oladigandek. ko'rsatadi. Vaholanki, hali o'smirni psixologik imkoniyatlari yetarli emas yoki rivojlanmagan kattalar o'qituvchilar o'smirdagi bu jarayonni psixologik nuqtai nazaridan baholay olishimiz unga soxta pedagogik, yuzaki yondashmay, aksincha, unga o'z imkoniyatlarini o'stirishga uz ichki va taigqi qobiliyatlarini tugri rivojlantirishga yo'naltirishimiz muhim. O'smir yoshdagi bolani birinchi galda intiladigan narsani u o'zini endi kichkina bola emas, katta bo'lib qolganligini a-grofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu yoshda katgalar o'smirlarni bilib-bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoral.ab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish uni "kach-ga bo'lib qolgayaglik" tuygusini so'ndirib emas, balki kaata odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi keraklitini anglatishi zarur. Demak, bu o'smirni to'laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bulgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bogllq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to'tri tushunmogi va bolalarni o'zlarini katta tutishlariga tusqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatsh-harakatlarini ijobiy yuzaga solish uchun intilishi qyorak. O'smirlarni uz tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi goyag katga ahamiyatga egadir.

O'z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilintan muammolar munosabat asosida o'smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi, o'zaro qiziqishlar, atrof dunyonni, bir-birlarini anglashlari va tushuiishlari ular uchun juda qimmatlidir. usmirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari buyicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimrokdir. O'z ishlarni sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi, U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urgu bermagan holda o'zi xohlagan kishisi bilan dust bo'lish xuquqini talab etadi. O'z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan tula namoyon eta oladi. SHaxsiy erkinlikni u kataa bo'lish huquqi deb anglaydi. Ota-onalarning o'smiriga shu erkinlikning bermasligi yoki usmirning shunday deb bilishi natijasida ular ota-onaga qarshi pozitsiyada buladilar, SHuni alohida. ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida usmirlarda gurur hissi shakllana boshlaydi, Albatta, g'urur norma va qoidalari kattalardan urganiladi, lekin uz g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi. Ular orasida sodiqlik va to'g'rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik o'z so'ziga bevafolik, egoizm, qizgonchiqlik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan uripshsh, kaltaklash unga qarshi baykot e'lon qilish va uni yolgizlatib qo'yish shaklida bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zini hurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

#### 4. O'smirlarjing psixik rivojlanishida yangi xislatlarning paydo bo'lishi

O'smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yo'llarda o'smirlarga hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira, mexaniq xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga kutariladi. Nutq rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. usmirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlariga o'rgatish mumkin. SHo'ningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar jakllanadi va rivojlanadi.

O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasto'ri va boshqa ishlar bilan bogliq turli masalalarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning

intellekto’al rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi, o'smirlarning o'zлari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlarga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillikni (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat) kuzatysh mumkin.

5-6 sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va o'lar bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa uz layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bogliq buladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. usmirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin,

O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli uqituvchilar uqitish munosabati yuzaga keladi. Kattalar shaxsi va faoliyatayai baholashning yangi mezonlari ham ularda shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushzsharli yo'l bilan yetkaza oladigan o'qituvchilarni ajratmaydigan, o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular uqituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

10-15 yoshli bolalarnint faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadilar. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katga bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergen bahosi differentsyal xarakterda (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti-harakatlariga) namoyon bo'la boshlaydi,

Takrorlash va muxrkama qilish uchun savollar.

O'smirlik davrining asosiy psixik xususiyatlari.

O'smirlik davridagi yetakchi faoliyat to'ri.

O'quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o'smirdagi bilish jarayonlarning rivojlanishi.

O'smirlik davri krizisi, sabablari va namoyon bo'lishi.

## **8-Mavzu: ILK O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.**

### **Reja:**

1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.
2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish.
3. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari

#### **1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari**

Ilk o'spirinlik davri kamolot bo'sag'asi deb ta'riflandi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimizning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratadilar:

I bosqich - prepubertat;

II bosqich - pubertat;

III bosqich - postpubertat.

Yosh psixologiyasi o'spirinlikning yoshini I- II bosqichlar bilan bog'lab kelar edi, Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqeい, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu akademik litsey va karbghunar kollejlari o'quvchilaridir. Bo'yning o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o'g'il bolalarda 17-18 yoshga davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ko'p bo'ladi. Jismoiy taraqqiyot, asosan, to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy Ta'lim bilan shuqumanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishidan kam farq qiladi. Bo'yning va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tutallanadi hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlandi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo'y, og'irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo'ladi. SHuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarnish' shakllanipgi va funktsional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda bu yopgda gorak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga xos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sokretsiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining va xususan, miya rivojlanishidagi o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin, bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki xujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro'y beradi. Bosh miya po'stining qismlarida assotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta (yarim shar) qatlaming analitik-sintetik faoliyata murakkablashadi. Jinsiy yetilish muddati irqiy va milliy xususiyatlarga va iqlimga bog'liq bo'lmaydi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'iroq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi bilpn (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirinsh) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinljk shaxsisa, uni o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli. o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki undn ipg'garok etadilar.

Uning mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalartgang unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirga kuproq bola deb qarasalar, ilk uspirin yoshdagilarga katta odamdek munosobltv bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rmini topigpto iigSshtii intilish anglagan holatida bo'la boshlaydilar, U o':\ haotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydm i<1 m^p.lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo'yi'1<1 . litseylarda o'qishini davom etgiradi. O'sTSyrinlar tanlppi) yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kapgfngntlar qilgilpri keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va ksshk)!!!!"1!1^^^ qilish uchun ularda bilim va xajriba yetishmayotganligini, Oushshg uchup ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay G>on1llydil||r.

O'spirin - bola bilan katta odam o'rtasidnsh orpmgq m.shqsni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rni k,1'gg,|l.1|i'p Gnn^i^ir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mnimun pp yo'nalishi miqdor belgalab beradilar. Bolaning bajaradigai ))oli kchggtlpr sifat jihatdan farq qiladi. Hayot faoliyati mur.jiiStspmg o'spirinlarda ijtimoiy rollar kongligrm ((x)ql'1' tomondangina kengayib qolmay, b $\ll$ k.i sch((|)gg 'gomoiidpm hlm boradi. Masalan: 16 yoshda pasiort olldi; 1N Gchpilli ((|)ol sylsp.p huquqiga va oila qurish imkopimtigp chgp oulpdi. o'(I" jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi, Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o'spirinlarda kaggalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishtan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, keljak uchun qayguradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi,

o'qishga nisbatan o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglashi bilan motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi, Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o'zgaradi, o'spirinning fanlarga xamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabati o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi «o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish-o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O'spirinlik yopshda boshdan kechiriladigan his-tuyqularning boyligi, xilmaligini bilan, hayotning turli tomonlariga emotsiyal munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi, Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his-guygularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi. O'spirinlik yoshida o'quvchilarda o'rtog'lik hissining rivoj topishi xarakterlidir.

Roseiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.SHyayarman tydqiqotlarining ko'rsatishicha, o'spirinliy yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chucherroq bo'ladi, Bularda-oshkorlik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini ^uixunish va hokazo.

2. Do'stlik hislari ancha sermazmui bo'lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi.

3. Do'stlik emotsiyal bo'lib, do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha bo'gun umr bo'yini davom etadi. O'rtoqlik munosabatlari jamoani jinslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o'rtog'ing borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylilik, emotsiyal sofkillik kabi xislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo'shatadilar. Do'stlarga samimiylilik shaxsining reflektavlik darajasiga hamda uning emotsiyal hayot xususiyatlariga bogliqdir, o'spirin hamma vaqt rostgo'y, samimiylilik bo'lishni istaydi.

O'spirinlik yoshida alohida bir his - sevgi paydo bo'ladi. Bu muktab o'quvchisining emotsiyal hayotida yangi bir holat hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi sof, pokiza, begubor, xilma-xil kechinmalarga boy, muloyim, xayolga berilish va samimiylilik belgilari ega bo'ladi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi xislatlar xarakterli bo'lib, o'lar bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi. O'rtoqlariga nisbatan munosabatlar doirasi kengayadi. Ayniqsa, qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Bolalarga xos 16-17 yoshlarda birinchi jiddiy moyillik va sevgi extiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi, O'spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga boqliq. Birinchidan - jinsiy yetilish; ikknichidan - ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj; uchnvchidai - bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib, inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsiyal bogliqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuygu kuchaygan shaklda birinchi bor ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. Ilk o'spirinlar yolgiz bo'linshi istamaganligi uchun o'zlar faol ravishda o'zaro yaqin muloqot, bir-birlari bilan intim Mo'nosabatni izlaydilar. Ba'zan o'spiriilar bu hislarga shunchalik berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutlyqo unutib qo'yadilar. Bu davrda o'spirinlarda sevish mumkiy bo'lgan qiz yoki yigit ideali paydo bo'ladi va ko'p yillar davrida bu ideal saqlanib turadi. O'nirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir

yoqtirishiga, sevipshtgyp turtki bo'ladi. O'spirinlarning ideal obrazlari ba'zan real bo'lmaydi, ya'ni ular hech kimni «uiga» o'xshatmaydilar. Bu esa ularda ishopchiszlik hamda yolgizlik hissini ham yuzaga keltirishi mumkim. Ilk o'spirinlarga ,shu Mavzuda badiiy adabiyotlar o'qish, kino({})ilbmlar, teatrlar tomosha qilishni tavsiya etish hamda turli suhbatlar o'tkazish, ularga o'zlarini kelgusi hayotlarini o'zlariga mos turmush o'f)toqlar topish masalasiga jiddiyroq yondoshishlariga yordam beradi.

## 2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish

Yuqori spnf uquvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarsh tahlil etishga va bu masala buyicha har tomonlama o'ylagan o'z fikrini berishga yordam bera oladi. Bu yoshdag'i uspirinlar atrofdagi turli voqe'a-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlar muloxaza yurgizib, qidirish jarayonining o'zi kuproq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar buyicha bahs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravigada davom etadi, Lekin, bu rivojlanish uspirinning uziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, uspirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlar taxlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa Mavzularda bahsda olib, uz munosabatlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda kup ilmiy tushunchalarni uzlashtarib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va uz-uzini anglash sezilarli -. darajada usadi. O'spirinning o'z~o'zini anglashi Uquv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida uz aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'agmrinlyak yoshi o'tsish, mezdayat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiyl va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganlyagi bilav xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol kechadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning uziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda kup bolalarda uz faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan buladi. SHuningdek, uz-uzini boshqarish ham uspirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol kuzga tashlanadi. ,';>

O'spirinning uquv mashgulotiga munosabati uz xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdag'i uquvchilarning Ta'lim jarayonidagi munosabatidan G1ub dai farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yansh fan va Mavzularning kiritilishi, uzlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, uquvchilarning uqishga munosabati ham uzgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bula boshlaydilar.

O'spirin o'quvchilarning Uquv fanlariga munosabatlari quyidagi holatlarga bogliqdir:

Fanning dunyoqarashdagi roliga.

Fanning bilyashAagi ahamiyatiga.

Fannnng ijtimoiy ahamiyatiga.

Fanning amaliy ahamiyatiga.

Fanning o'zlashtirshi darajasyaga.

Fashshng o'zlashtirish uslubiyotiga.

O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish kulami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi, Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masala, arga, texnika, tabjatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kutayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanmk yanada takomillashib boradi, mantaqiy xotirasi, zsda olib qolishining oqilona yo'li, vositalari Ta'lim jaraspida yetakchi vazifani ado zga boshlaydi. Mazkur pallada ustsirirlarnish.' tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususdat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyagi rivojlanadi. O'spirii turli janrdagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifataga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi

deganda, o'spirin ongada tevarak-atrofdagi voqelik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda esa moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning1 o'zaro boqlanish va munosabatlari o'soirinning fikrlash faoliyatida to'.shq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi uzining mazmundorliga va chuqur.shgi sifatilari bilan mutnazam bogliq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinnish-shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilai mustaqil hal qilish o'quvchanljgani tugyaunishi kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga tuliq javob olingen vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan ork.ada bulib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulturmaydillr yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib oligi maqsadida umumlaiggiruvta tushunchalardan foyd<11;1iiSHni bilmaydilar, chuyki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hody's() va faktlarni tadtqiq qilishni yodlab oladilar. Balllnrni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun ularning o'hipg faolyyat XMrINI faollashtirid! va ularning bilimlarini ongli rashppo o'schmrishi kerak. Ta'limda onglilik o'quvchining yuqori darajdsid^gi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol f<tl[ngt ko'rsatib o'zlashgirgaida, o't^uvchilar bu bilimlarni yaxxpi tushuniogehshl qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rg.shidilar. G.P.SHnlliss.kiy o'quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy h^md.! ij'l'imoiy faktlar va hodisalarni mustaqil raiishd;! ilmiy tahlil k'ilish va ularga baho berish usullarini mpxsus urgtish muhim, va zarurligiyai tadtqiqot asosidl ko'rg.ggiG) osrgam. 1. o'rinda o'quvchilarning mustaqil fikrlnshlarp (aplottiriigga, cho'gri rahbarlik qiltan holda tanishishi lozim. O'spirinlarnishg aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir, O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga urgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi, Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlari unda fikrlash, mustaqil uylash, to'gri hukm va xulosalar chiqarish, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir. o'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammoning tomonlari yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyak darajada ishtirot etishi aql tanqidligining ayian uzginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa uspirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylig. darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtai-nazardan qarashni urgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlanan boshlaydi. Aql tanqidiyligining rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, Ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalar «.tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'trisida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlanadi. O'spirin qobiliyagi va iste'dodi Ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, kunikmalar, malakalarning sifatiga bogliq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi. Demak, mакtabda o'shladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o'spirinlar o'zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tutpunishga olib keladi. Bularning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini o'sishiga,••'. aqliy imkoniyatlarinyng vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashiga muhim shart-sharoit yaratadi. Yuqoridagilardan ko'rinib auribdiki, o'smirlik yoshida o'quvchilar aqliy faoliyatning omillari va usullari bilan qurollangan bo'ladilar.

Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarapsh kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatl mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi. O'spirinlarni kasbga yo'naltirishda ularning his-tuygu va irodalarini hisobga olishning ham muhim ahamiyati bor. Chunki o'quvchilarning his-tuygusi, kayfiyati, hayajonli holatlarda e'tiborga olinmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'spirinlar u yoki bu kasbni o'z ixtiyorlari bilan ongtsh ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dalillik, qat'iylik, o'zini tuta billsh, chidamlilik, sabr-toqat kabi

umuminsoniy xislatlarga ega bo'lrtlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarip! istagi, maqsadning aniqligi, hunar o'rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarning shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlar aqliy rivojlanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natjasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to'qri rejalashtirish mumkin emas. o'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi.

Hozirgi yigit va qizlarni 30-40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumky saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. Intellektual qiziqishlar doirasi keng va ko'pqirralidir. O'spirinlar radio, televidenie, ilmiy-ommabop asarlar, kinofilbimlar, fan va texnika taraqqiyotida muhim rol o'yamoqda. O'spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o'zi tanlagan kasb va yunalishi shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O'spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak poqonaga k}garila boshlaydi. Bu esa o'spirishshng tashki olamni tushunishiga, baholsh-shiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O'spirinlarning dunyoqarashi endi ularning i.shiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir.

Hayotda turli xil kasblar mavjud, Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o'z hayotini, asosan, ana shu bir kasbga baqishtshhi mumkin. SHu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davrdan boshlab, bolalarniig ro.lli o'yinlarida ko'rindi. Demak, bola o'yin orqali to'la kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi, Masalan: «magazin» yoki «bozor» o'yini orqali, bola ham ^sotuvchsh ham «xzri^orya bo'la oladi, kduL» va «tvar» bilan muomala qilnshni urgyyadi. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb aggash mumkin. Keyingi yosh davrlarda bu tayyorgarlik gurli faoliyatlarida va turlicha ko'rinishlarda davom etadi. «Men xim bo'lalpsh?» savoliga to'qnash keladi. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishii boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. o'smirlik Davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnecht ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalaridan o'larning kelgusidagi kasbiy faoliyatlarini bilan to'gridan-to'gri boqliq, Tajribalarning ko'rsatishicha, agar o'spirinlik dlvriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layokatlarni yuzaga kelishiga umid boqlash qiyin. Misol uchun bolalik naytlarida texnika bilon muomala qila olmagan, slesarlik asbob-uskunalaridan foydalana olmagan, o'z qo'li bilan nimanidir bajara olmagan bola talantli injener-konstruktur bo'lib yetishishi ancha mushkul, yoki litsey va kollejlarda matematik, lingvistik, badiiy-ijodiy layoqatlarini ko'rsata olmagan bola katta bo'lganida hech qachon kuchli matematik, filolog yoki musavvir bo'lib yetshpa •olmaydi.

Har qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi, avvalo, o'siirin intellektining umumiyl rivojlanganlik darajasiga boqliq. SHuning uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Bu yoshdagagi bolalarga muloqotga kiripshsh ehtiyojining mavjudligi ham juda muxim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalichlari bo'yicha mashgul bo'lмаган o'spirinlargina ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishiga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shuqullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin, O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoyun noto'gri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mo'mkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun, xam, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilliigi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tshsh, analizatorlar xususiyati emotSIONAL-IDORAVIY sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

### 3. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'tgailik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb- tanlashga nisbatan yas'uliyatsiz yondopshdilar, Bu davr o'spirining axloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'sdirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatshsh ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai - bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar, o'spirin yoshdagilar esa savollarga to'gri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy, publitsisgik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. O'lar haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan: o'tgan yillardek «haqhoniylik bu hammaga bir xil emas, balki har kimning imkoniyatiga harab va hammaning ishiga yoki ivson manfaatlariga qo'shgan hissasiga qarab belgkланади», deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib, juda ko'p o'smirlar axloqiy jixatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qat'iyashgan xususiyatlariga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda axlokiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha (ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bulmay, balki xayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi, ' yoshlaridir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida 1, o'z xapi-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo I o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quydagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, bolada tashqi olamdag'i predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;

ikkinchidan, o'zining shaxsiy "L/eya"ligini aktiv faoliyagn asosida anglashi;

uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va xislatlarni ash-lashi;?/ to'rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho bsrishning' ma'lum sistemasini anglashi.

Mana shu elementlariing barchasi bir-biri bilan funksional va genetik boglangandir. Lekin, bulariing hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi, Bolaning «jeya»ligini anglashi gaxminan 3 yoshda naydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: moi, meniki, menlan va hokazo, uzining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baxo berish o'spirinlik yoishda, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan ; o'smirlik vaqgidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi, semizlik, yuzidagi xusnuzarlar yigit va kizlarni bezovtalangiradi, ular ichtirob chekadilar. Kech yetiladigan o'gil va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrdzi - bu o'spirinlikning o'zini anglashi ancha muxim komponent bo'lib hisoblanadi.

O'spirinlikda o'z shaxsiy xislatlari baho berish kuchayadi. o'spirin ham o'smir singari o'z qadr-qimmatini, ushgag nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benihoya bilgisi keladi. O'ziga baxr berish ikkita o'sulda bo'ladi.

Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baxrlaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o'zini yo'qotmaydi yoki yosh bolani yonshndan qutqazdi — chMen qo'rroq emasmash deydi.

Ma'lum qiyin topshiriqni bajaradi. «Men qobiliyatlimav» - deydi. Axloqqa oid bunday xatti-harakatlar, o'spirinning uz qat'iyligini sinashi hamdir,

P. Ijtimoiy taqqoslash, ya'ni o'zi haqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan «mardlik» deb ma'qullangan xatti-xarakatni uqituvchi «qalbaki o'rtoqlik» deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti-harakatlari to'g'risida uylab, bosh qotira boshlaydilar. SHaxsiy «mev» obrazi, juda murakkabdir. Hatto kattalarning uzini anglashi qarama-qarshiliklardan holi emas. O'spirinlarda yanada kuchliroq bo'ladi. Ba'zi uspirinlar o'zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko'proq uchraydi. Bu holat shunchaki o'sishni bildirib qolmasdan, balki shaxsda moxiyat jixatidan tubdan boshqacha tarzda o'z shaxsiyatining ma'naviy-ro'hiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi, maqsad va vazifalarini anglashi, ularni oqilona baxrlash zaruratini aks ettiradi. Undagi uz~o'zini anglash, turmo'sh, yashash, o'qish, mehnat va sport faoliyatları tarzida bilan namoyon bo'ladi. o'quv muassasa, mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyag, shaxslararo munosabatlar va muomala ko'laming kengayishi o'ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xususiyatlarini oqilona baholash, quyilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish, o'z-o'zini anglashini jadallashtiradi, o'spirin uquvchilarining o'z-o'zini anglashga aloqador o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ular dastavval o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklariyi aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'spirin o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir xususiyati - bu, murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatini e'zozlashi, sezishi va fahmlashga ko'proq moyilligidir. O'spirin o'quvchida o'zini anglashi negizida o'zini Ta'limlash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini Ta'limlash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko'rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o'z-o'zini Ta'limlash jarayoni o'spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobjiy xislatlarni shakllantirish . bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos kupqirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatifazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlari va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o'z-o'zini Ta'limlash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intaladilar.

O'spirin uquvchilarning o'z-uzini Ta'limlash jarayoni o'quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining Ta'limviy ta'siri doirasida bo'lmosg'i shart, Toki o'z-o'zini Ta'limlashnish' takomillashtirishi jamoada munosib o'ren egallahsga, ijtimoiy . burchni anglash, foydali mehnatga jalg etish ishiga xizmat dilsin. o'z-o'zini Ta'limlash tugri izga solib yuborish uchun uygun bir/shkni tashkil etgan Ta'limviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta'sir utkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorag qilish, uzaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmuigda uchraydigan ba'zi bir yaramas yurish-turish kurinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O'spirinlarda balogatga yetganlik tuygusi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg'usi o'sib o'tadi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intalishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, tasviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. o'quv va mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rkoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayoiida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustf,qillik, qat'iyatlik, mas'uliyatlik, uz .\*\*\*\*\*; harakatlarini tanqidyy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi. o'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok ztishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zining kimlsh'i, qandayligi,

qobiliyatlar, o'zini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do'st va dushmanlarining kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi biglishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki, o'spirinlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Bat.zai o'spirinlar o'zlaridan, hech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga haddai tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uniig uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bo'lardan ko'rinish turibdiki, o'sirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarpi bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa uspirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsaxib utilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o'z-o'zini hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shdxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini Ta'limalsh masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar — qahramonlik, yaxshi ota, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. O'zaro munosabat va emotsiunal hayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'spirinning o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, uz tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qullab-quvvatlashida inobat hal qila oladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

Ilk o'spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyatlari.

O'spirinlikdagi aqiliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlar o'rtasidagi bogliqlik.

O'mumiyligi va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.

O'spirinlik davrida kasb tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.

## **9-Mavzu: YOSHLARNI OILAVIY XAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK.**

**Reja:**

- 1.Oilaviy munosabatlar.
- 2.Oiladagi maishiy-xo'jalikni yuritish
- 3.Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga munosabati.

"Turush musht", "Oiladagi bir gap ko'p, bir gap kam" degan shakldagi fikrlarni ko'plab uchratamiz. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning yoki kelin-kuyovlarning to'yga qadar bir-birlariga muvofiq kelishi ("yo'lduzi yo'lduziga" mos kelishi tarzda badiiy tus berishi), o'zaro sevgi-muhabbat va yoqtirish asosida turush qurish ancha ijobiy holat sifatida qaraladi. Navbatdagi "Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqliklarini aniqlovchi shkala nikohdag'i sheriklarning maslaklari, qiziqishlari, manfaatlari, qadriyatlar yo'nalishi, vaqtini o'tkazishlari bilan bog'liq bir qator ustakovkalarni mujassamlashtirgan.

Hamkorlik psixologiyasi, o'ziga sherik tanlash va birgalikda faoliyat ko'rsatish kundalik turushda uchraydigan hodisalar. Ular shaxslarning ma'lum vaqt mobaynida amalga oshiradigan faoliyatlaridir. Aksincha oiladagi er-xotinlarning birgalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatini qisqa muddatli biron-bir me'yor bilan chegaralab bo'lmaydi. Agar mehnat jamoasida xodimlar o'rtasidagi nizo sababli biri o'zining ishchi o'rnini boshqa jamoaga o'zgartirishi yoki jamoaning boshqa a'zolari bilan yaxshi munosabat o'rnatish orqali o'z xatti-harakatlarini kompensasiyalashi mumkin. Oilada er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik, nizolar oqibatida esa yuqoridagi tarzda ish tutib bo'lmaydi. Er-xotinning shaxs sifatida bir-birlarini qabul qilishlari xalq orasida qo'llaniladigan "er-xotinning urishi doka ro'molni qurishi" naqli hojat qoldirmaydi. SHunday ekan, natijalarga murojaat etib ko'raylik, erlar  $6,26+0,61$  va ayollar  $8,63+0,85$  ball ( $r<0,05$  ga teng

bo‘ldi) bilan qanoatlanganlar. Olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar, erlarni turmush o‘rtog’iga muvofiq kelishi to‘g’risida o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Bu esa erkaklar uchun ayollarning manfaatlari, qiziqishlari, qadriyatlar orientasiyasiga ular tomonidan belgilanishga ishtiyoq yuqoriligini aytish mumkin. Milliy madaniy muhitimizda ham xotin doimo ernes tushunishi, uning fikrlariga qarshilik bildirmasligi, norozilik qilmasligi va so‘zsiz bo‘ysunishi lozim degan pozisiyada turish yetakchilik qiladi.

Diniy-falsafiy nuqtai nazarda ham er-xotinga nisbatan bir pog’ona yuqori bo‘lishi lozim deyilsa-da, ammo bu talqin erkakning tabiiy imkoniyatlarini, (jismonan baquvvat, xo‘jalik ishlarini boshqarishga moyil) inobatga olib aytilgan. Erkaklarning natijasi nisbatan avtonomiyaga, ya’ni turmush o‘rtoqlarining ularni xohish-irodasi, qiziqishlariga muvofiqlashishlaridan dalolat beradi.

Xotinlarning natijalari esa erlarinikiga nisbatan anchagina yuqori. Bu esa ayollarning (qizlarni) o‘zlariga turmush o‘rtoq tanlashda oqilona yondashishga moyil ekanligini anglatadi. Ayollar o‘zbek etnosidagi xotinning eriga tobe bo‘lishi, uning manfaatlariga muvofiq xulq-atvori va qiziqishlarini moslashtirish kerak degan an’anaviy tamoyilga amal qilsalar-da, lekin bunday holat kuchli hissiy zo‘riqish, frustrasiyaga moyillik, noroziliklar bildirib turish, ajralish xohishining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ayollarning natijalari erlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi ularni umumiy qiziqishga ega ekanligi, ehtiyojlar, qadriyatlar yo‘nalishi, vaqt ni o‘tkazish usullariga ega bo‘lishi lozim deb hisoblaydilar. Metodikaning ushbu shkalasidagi xususiyatlarga ayollar ancha ijobiy qarar ekanlar. Ammo ayollar turmush o‘rtoqlari (erlar) ko‘pincha yuqoridagi xususiyatlarning hammasiga ham ahamiyat bermasligini bildiradilar degan nuqtai nazarni ilgari sursak bo‘ladi. CHunki zamonaviy oiladagi inqirozlarni aynan er-xotin o‘rtasidagi shaxslilik identifikasiyasining mujassamlashmaganlik oqibati deb qarash mumkin. Bu esa oilalarda quyidagi holatlarni e’tibordan chetda qolayotganligini ifodalaydi:

-er bilan xotinlar o‘rtasidagi shaxslilik muvofiqlashuvi doimo ham oila qurish jarayonida inobatga olinmayapti;

-erlarda turmush o‘rtoqlari bilan umumiy manfaat va qiziqishlar hosil qilishga intilish yetarli emas;

-qizlarning (ayollarning) er bilan identifikasiyalashuvlari ideal rejada bo‘lib, reallikka oshmasligi ko‘p kuzatiladi.

-erlarni xotinlari bilan bo‘sh vaqt ni birga qiziqarli, maroqli o‘tkazish to‘g’risidagi faoliyatlar shakllanmagan.

Aytish joizki, shaxslilik identifikasiyasi oiladagi shaxslararo munosabatlarning me’yorida bo‘lishini ta’minlashda boshqa omillarni ham inobatga olishga chorlaydi.

3.Maishiy-xo‘jalik yuritish. "Bo‘sh qop tik turmaydi", "avval iqtisod, keyin siyosat" shakldagi naqlarni tez-tez takrorlaymiz. Oilaning maishiy-xo‘jalik faoliyatini ko‘ngildagidek o‘tishi er-xotinlarning munosabatlarini, shuningdek, uning barqarorligini ta’minlovchi markaziy omillar sirasiga kiradi. Ammo oiladagi maishiy-xo‘jalik faoliyatini boshqarishda kimning yetakchilik qilishi kerak? degan savol ko‘ndalang turadi. Metodikaning xususiyatiga ko‘ra, shkala bo‘yicha yuqori natijalar er-xotinlarning bir-biriga nisbatan maishiy-xo‘jalik yuritishga nisbatan talab yuqori ekanligini bildiradi.

Ushbu shkaladagi natijalarga ko‘ra, erlar  $6,35\pm0,54$ , xotinlar  $7,12\pm0,83$  ballni (r-farqlar ishonchliligi kuzatiladi) namoyon qildilar. Milliy an’analaramiz hamda islom dini tamoyillariga ko‘ra, nikoh o‘qitilayotgan vaqtida yigit kishiga (kuyov bolaga) ijtimoiy buyurtma sifatida xotinni yolg’iz qoldirmaslik, asosiy xo‘jalik ta’minotini ta’minlash talablarini qo‘yadilar. Ammo zamonaviy oilalarda er-xotinlarning maishiy-xo‘jalik yuritishdagi rollarini o‘zgarayotganligi ham muayyan nizoli vaziyatlarga olib kelmoqda.

Oiladagi maishiy-xo‘jalikni yuritish uzoq vaqt shakllangan ko‘nikma va malakalarning natijasidir. Ota-onalar farzandlariga oila qurish ostonasida emas, yoshlik davridanoq yo‘nalish berishi o‘rinli hisoblanadi.

Maishiy-xo'jalik yuritish shkalasi bo'yicha natijalar erkaklarni xotinlariga nisbatan uyjoy ishlariga nisbatan talablari stabillashgan bo'lsa, ayollar esa erlariga maishiy-xo'jalik yuritish faoliyatidan yetarlicha qoniqmasliklarini va erlaridan faollik, shijoatkorlik, tadbirkorlik hamda xo'jalik ishlarida uquvlilikni talab etmoqdalar.

Maishiy-xo'jalik faoliyatining me'yorda bo'lmasligi oilaviy munosabatlarga doimo zarar yetkazadi. SHu o'rinda er-xotinlar maishiy-xo'jalik faoliyatiga aloqador yumushlarni bajarishda hamjihatlikni, o'zaro tushunishni va voqelik bilan imkoniyatning mosligini inobatga olishlari lozim.

Er-xotinlarni maishiy-xo'jalik yuritishga tayyorliklari an'anaviy hodisadir. CHunki, o'ylanayotgan har qanday yigit:

- xo'jalikdagi jihozzlarni tuzata olish;
- duradgorlik, elektr, qurilish yumushlarini uddalash;
- ba'zi bir taomlarni tayyorlay bilish;
- uy hayvonlarini parvarishlash;
- o'simliklarga ishlov berish va boshqa yumushlarni bajarish malakalariga ega bo'lishi joiz.

Uzatilayotgan qiz esa:

- uyni saranjom-sarishtalash;
- pishiriqlar va mazali taomlar tayyorlay olish;
- oshxona idishlarini toza-ozoda saqlash;
- mehmon kutishni uddalash va shu singari ishlarni mohirona bajarish talab etiladi.

Sanab o'tilgan jihatlar nikohdagi sheriklarning maishiy-xo'jalik faoliyatini psixomotorik tomonidan amalga oshirishni ifodalaydi. Bu xususiyatlarga qo'shimcha ravishda er-xotinlarga shaxslilik sifatlari ham kamol topganligi shart hisoblanadi: xushmuomalalik, sabr-toqatlik, estetik did, sezgirlik, talabchanlik, samimiylilik, hamjihatlik, saranjomlik, bag'rikenglik, va mehmonnavozlik.

Natijalarimiz er-xotinlarning javoblariga ko'ra, maishiy-xo'jalik yuritish faoliyatida hali nisbatan nomutanosiblik hukmronlik qilayotganligini ko'rsatadi. Natijada er bilan xotinlarning xo'jalik faoliyatidagi rollari o'zgarishiga olib keladi.

SHu sababli, o'zbek etnosidagi "avlodlar estafetasi" tamoyiliga o'g'il-qizlarning oiladagi maishiy-xo'jalik faoliyatini yuritish ustanovkalari ta'siri ostida shakllantirish ma'quldir.

4. Ota-onalik funksiyasi. Bu shkala er-xotinlarning ota-onalik majburiyatlariga munosabati, farzandlar shakllanishdagi shaxsiy pozisiyalari, ota-onalik funksiyalariga taalluq tasavvurlarini ifodalaydi.

Er-xotinlarning ota-onalik hamda Ta'limchilik funksiyalari to'g'risidagi tasavvurlari, ularning shaxslilik pozisiyalari, ijtimoiy talablarga mas'uliyat, jamiyat va oila munosabatlaridagi o'rinalarini belgilaydi. Bu shkala bo'yicha er-xotinlar nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni, ya'ni  $7,14 \pm 0,82$  ball. (erlar) va  $7,85 \pm 0,96$  ball (xotinlar) (1 ilovaga qaralsin) bilan qanoatlanganliklari guvohlik bermoqda. Ota-onalik va Ta'limchilik funksiyasiga ularning ijobiy tasavvurga egaligi o'zbek xalqi-ning azaldan "bolajon"ligi natijasidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar er-xotinlarning bu boradagi funksiyalariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Er-xotinlarning farzandlariga nisbatan ota-onalik mehri tabiiy asoslansada, ammo Ta'limviy faoliyatida anchagina tanazzul ko'zga tashlanmoqda. Ota-onalar ko'proq farzandlarning moddiy ta'minoti bilan mashg'ul bo'lishlari, oilaviy Ta'lim jarayonida bo'shliqni hosil qiladi. Bu esa zamonaviy oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitda inqirozni yuzaga keltiradi.

SHuningdek, er tomonidan oilaning maishiy-xo'jalik sohasiga asosiy e'tibor qaratayotganligi, unda ota Ta'limsining o'rni bo'shab qolayotgani, onaning uy yumushlari bilan mutassil mashg'ulligi o'g'il-qizlar doimiy nazoratidan chetga qolishga olib kelmoqda.

Natijalar er-xotinlarning ota-onalik, Ta'limchilik ustanovkalari bo'yicha tasavvurlari ijobiy bo'lsa-da, lekin real muhitda bu majburiyatlar "begonalashayotganga o'xshab qolmoqda".

Er-xotinlarning ushbu doiradagi tasavvurlari dastlabki uchala shkala bilan navbatdagি uchta shkalani birlashtiruvchi bo'lib hisoblanadi. SHu bois, shkala er-xotinlarning ota-onalik

rollari oilaning bir butun jips tizim sifatida o‘z atrofida birlashtiruvchi qadriyat ekanligini unutmaslik kerak. Oilaning tanazzuli va undagi shaxslararo munosabatlar ham mazkur rollarning buzilishi zamirida yotadi.

Ijtimoiy faollik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligini, ya’ni kasbiy va jamiyat hayotidagi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi ustanovkalarni aks ettiradi.

Ijtimoiy faollik shkalasi er-xotinlarning maishiy-xo‘jalik va Ta’limchilik funksiyalarini sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Albatta, oilaviy munosabatlarning barqarorligi er-xotinning savodxonlik darjasи, kasbiy faoliyati va mahalla-ko‘y orasidagi mavqelariga bog’liq.

Er-xotinning oilaviy munosabatlarida e’zozlanishi, muammolarning joy-joyida hal qilinganligi ijtimoiy munosabatlar (er yoki xotinning mehnat qilayotgan jamoasidagi, yashayotgan mahallasidagi, qon-qarindoshlar orasidagi shaxsiy mavqeい) dagi rolini belgilaydi.

Erkak kishi oilani moddiy ta’minalash uchun qandaydir ishning boshini tutgan bo‘lishi kerak.

Er-xotinning oiladan tashqari qiziqishlari shaxslararo ta’sirlashuv jarayonining asosiy qadriyati hisoblanadi.

Natijalarda esa quyidagicha manzara kuzatiladi, ya’ni erlar  $6,43\pm0,56$  ball, ayollar  $7,08\pm0,58$  ball to‘pladi. Bu esa ayollarda turmush o‘rtoqlarining kasb-kori, mavqeи, ularning qiziqishlari muayyan ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Erkaklarga ayollarini qanday faoliyat mazmuniga ega bo‘lishi (so‘zsiz o‘zgarishlarga olib keladi) unchalik ahamiyat kasb etmas ekan. Insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasida ham er oilani moddiy jihatdan ta’minalashning asosiy kuchi hisoblanadi. Yangi oila qurilayotgan vaqtida, nikohda kuyov yigitdan islom dini qoidalariga ko‘ra bir qator shart-talablar qo‘yilishini aniq bilamiz. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muhitning o‘zgarishi er bilan xotinning oiladagi moddiy ta’mindagi funksiyasini o‘zgarib borishiga olib kelayotganligi uning tuzilishida ba’zan buzilishlarni keltirib chiqarmoqda.

6.Emotsional-psixoterapevtik. Bu shkala er-xotinlarning oiladagi emotsiyal-psixoterapevtik funksiyalari ahamiyatini belgilovchi hisoblanadi. SHkala-mazmuniga ko‘ra, ikki xil jihatli ma’noga ega. Birinchidan, er-xotinlarning oiladagi emotsiyal liderlikni, psixologik muhitni, axloqiy va hissiy qo‘llab-quvvatlash hamda "psixoterapevtik muhitni" shakllantirish masalasini aks ettirsa, ikkinchidan, er-xotinlarning oila "psixoterapevti" rolini bajarishga intilishini belgilaydi. Natijalarning umumiy mazmuni er-xotinlarning o‘zaro axloqiy va hissiy jihatdan oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlashi, uni ardoqlashi, unda psixologik xotirjamlik va barqarorlikni muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bizning tadqiqotimizda "emotsional-psixoterapevtik" shkalasi bo‘yicha tekshiriluvchilar quyidagi ko‘rinishdagi ma’lumotlarni namoyon qildilar. Erkaklar  $5,36\pm0,23$  ball, ayollar  $6,10\pm0,55$  ball ( $r<0,05$  ga teng bo‘ldi). Natijalarimiz bir tomondan ajoyib ma’lumotlar berishga, ikkinchidan, ancha taajjubli holatga olib kelmoqda. Chunki erkaklarda natijaning o‘rtacha miqdorini namoyon qilganligi, oiladagi liderlik funksiyasini ayollarga berib qo‘ymayotganmikanlar degan mulohazaga imkon yaratmoqda. "Ijtimoiy-faollik" shkalasidagi natijalar ham buni tasdiqlamoqda. Bugungi oilalardagi inqirozli holatlarda erkaklarning undagi yetakchilik funksiyasi o‘zgarganligi ancha sezilib qolmoqda. Ba’zan xalq orasida "erkak ko‘cha odami" degan odatiy jumlalarni eshitamiz. Ammo oilaning mustahkamligi, ijobiy-psixologik muhit, er-xotinning hamda undagi ma’naviy-hissiy qullab-quvvatlashda erkakning rolini oshirish bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Natijalar bo‘yicha korrelyasion tahlil ham buni yana bir bora haqchil xulosa ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ayollarning natijalari o‘rtachadan ancha yuqori  $6,10\pm$  ball. Bu ayolning oiladagi liderlikni, hissiy-psixologik muhitni stabillashtiruvchi unda psixoterapevtik rol bajarayotganligidan dalolat bermoqda. Oila a’zolarining ma’naviy va hissiy qo‘llab-quvvatlashda ayolning o‘rnii yuqori ekanligini tasdiqlasakda, ammo jiddiy hayotiy masalalarda va nizoli vaziyatlarda ayolning hissiy xulosalarga kelishini e’tibordan chetda qoldirmaslik ma’qul. Mabodo, ota va onaning farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatlari ham oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning belgilovchi omillaridan biri deb qaraydigan bo‘lsak, klassik psixologiya vakili E.Frommning quyidagi fikriga e’tibor qaratish joiz: "Otaning farzandlariga muhabbat majburiyat

doirasidan, onaning bolalariga sevgisi esa tabiiydir". E.Fromm fikrining o'ziga xos (jihat) tomoni bor. Agar ushbu mulohazani ayolning faoliyati bilan bog'laydigan bo'lsak, uning oilada "psixoterapevtik" funksiyani amalga oshirish uchun mas'ul shaxs sifatida sanash mumkin. Farzandlar kamoloti, oiladagi ozodalik-sarishtalik, erga e'tibor qaratish, a'zolar o'rtasida mehr-muhabbatni tarkib toptirishda ayolning rolini oshirish tabiiy holdir. Ammo oiladagi ayol bilan erkakning funksiyalarini keskin ravishda taqsimlab qo'yish maqsadga muvofiq bo'lmasa kerak. Funksiyalar tengligiga erishishga qaraganda vazifalar uyg'unligini ta'minlash ma'quldir (Psixoterapevtik muvofiqlik bo'yicha III bobda batatsil to'xtalib o'tiladi).

7.Tashqi jozibadorlik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi qiyofalari va ularning kiyinishlarini zamon talablari darajasiga mosligi ahamiyatini belgilovchi ustakovka hisoblanadi. SHkaladan ko'rinish turgandek er-xotinlarning eng yoqimtoy juftlik bo'lishi tashqi jozibadorlikka egalik, bejirim va zamonaviy kiyinishga intilishi masalasi oilaviy munosabatlarning muhim shartidir.

"Onangni otingga bezaksiz ko'rsatma" degan maqolning o'zi shkalaning to'liq mazmunini ochib beradi. Umumiy psixologiya va ijtimoiy psixologiyada insonni inson tomonidan idrok qilishda tashqi qiyofanining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar talaygina.

Ular insonni inson tomonidan idrok qilishda tashqi ko'rinish, kiyinish va gavda tuzilishi muhim o'rinni tutishini ilmiy asoslashgan. Yigit qizni yoki aksincha bir-birlarini yoqtirishlarida tashqi qiyofa va joziba yetakchi o'ringa egaligi kundalik hayotda ko'pincha kuzatilmoqda. CHunki, shaxs to'g'risidagi dastlabki taassurotlarni idrok orqali va nazar tashlash tufayli olinganligi bois bunday holatni tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga nisbatan yoqtirish va yoqtirmasliklarida didga mos kiyinish, go'zal qiyofaga va husnga egalik, o'zaro ta'blarini hisobga olgan holda kiyim tanlashlari, kiyimlarning orastaligini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Erkak ham, ayol ham tabiatan tashqi jozibadorlik, go'zallikka da'vogar. Ammo bu da'vogarlikni kim qanchalik darajada amalga oshirishi shaxs kamolotiga bog'liq. "Tashqi" jozibadorlik shkalasiga ko'ra erlar ham, ayollar ham shaxsiy yoqimtoylig, zamonaviy va orasta kiyinishga intilishlaridan dalolat bermoqda.

Deyarli, har ikki jins vakillari shkala bo'yicha ancha yuqori natijani namoyon qilishgan, chunonchi, erlar  $8,20 \pm 0,68$  ball, ayollar esa  $8,61 \pm 0,81$  ball to'plashgan. Natijalarning bunday yuqori darajada bo'lishi tekshiriluvchilarining tasavvur timsollari mahsuli hamdir. Tasavvur va xohish istaklarni ruyobga chiqarish esa ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, madaniy muhit, shaxsning dunyoqarashi va his-tuyg'ulariga bog'liqidir. Ammo qanday bo'lishidan qat'i nazar er-xotinlar "tashqi jozibadorlikka" da'vogar ekanlar. Agar ushbu holatni shaxsning o'zini o'zi hurmatlash modelini bog'laydigan bo'lsak, o'zini o'zi hurmatlashning

#### муваффакият

#### = даъвогарлик

(U.Djems) ko'rinish olishi ijtimoiy psixologiyada haqchillikka da'vogarlik deb baholangan. o'ylaymizki, er-xotinlar "tashqi jozibadorlikka" erishish uchun o'zlarini hurmatlashlari va unga erishishga intilishlari lozim. Buning uchun oilaning moddiy ta'minotini yaxshilash, shaxs sifatida identifikasiyalashgan, ijtimoiy faollikka egalik shart.

Biz metodika natijalarini uch bosqich bo'yicha tahlil qilishni mo'ljallagan edik. SHu sababli, ikkinchi bosqichdagi ko'rsatkichlar qo'yidagi 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

2-jadval

	Jin-Siy intim	SHaxsiy iden-tifika-siya	Xo'ja-lik mai-shiy	Ota-on-a Ta'lim-chi	Ijti-moiy faol-lik	Emotsi-xoterapev-tik	Tashqi a-dorlik
Oqsh.e	4	8	7	5	5	5,5	6
Oqsh.a	3	6	6,5	8	8	6	7

Oqm	1	2	1,5	0,5	3	0,5	1
-----	---	---	-----	-----	---	-----	---

Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlar shkalalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar qo‘yidagi hulosani keltirib chiqardi:

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, er-xotinlar juftligining oilaviy qadriyatlar bo‘yicha muvofiqligi ma’lum darajada ekan. Er-xotinlarning oilaviy turmush faoliyatining muhim sohalari bo‘yicha farqlari belgilangan me’yordan oshib ketgan (belgilangan me’yor-3 balldan oshmasligi kerak). Er-xotinlar oilaviy munosabatlarida ota-onaning Ta’limchi sifatida, ehtiyojlar, tasavvurlar, ularning turmush maqsadlari muhim o‘rin tutar ekan.


YAna shuni aytish joizki, oilaviy munosabatlardagi beqarorlik ota-onalik majburiyatlariga yetarlicha tayyor emaslik, e’tiborsizlik, g’amxo’rlik va iliq o‘zaro munosabatga, jozibadorlik va zamonaviy tashqi qiyofaning yo‘qligi hamda maishiy muammolarni hal etishga imkonи kamligidan dalolat bermoqda.

Oilaviy munosabatlar attraktsiyasi. Oila a’zolari o`rtasida sodir bo`ladigan murakkab va serqirrali o`zaro munosabatlar ko`plab olimlar, shu jumladan, o`zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, G`Shoumarov, E.G`oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog`inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliquov va boshqalar) tomonidan o`rganilgan. Ularda ko`proq o`zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Lekin oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o`rinda biz oilaviy o`zaro munosabatlarga xos bo`lgan munosabatlarning psixologik tabiatiga, kelib chiqishi va dinamikasiga e’tiborni qaratgan ko`plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma’lumotlarni keltirishni joiz deb bildik. Shu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar fenomenologiyasi ijtimoiy-psixologik izlanishlar ob’ekti sifatida o`rganilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz.

Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini bat afsil monografik tarzda o`rganganlardan biri rus olimi L.Ya. Gozman (1987) hisoblanadi. U bu qonuniyatlni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun attraktsiya tushunchasini ishlatgan. Attraktsiya inglizcha attraction – tortilish, intilish so`zlaridan olingan bo`lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadiq, ya’ni, diada – ikki kishi o`rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraktsiya bilan bog`liqdir.

Gozmanning ta’kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraktsiyaga turtki bo`luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya’ni, bir ko`rishda yoqtirib qolish, uning xusniga rom bo`lish kabilalar attraktsiyaning dastlabki bosqichi bo`lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid’atga, ya’ni chiroyli odam aqlli va ahloqli bo`lishi to`g`risidagi tasavvurlarga bog`liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo`llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U – simon egrilik tarzida tasavvur etadi (4.1-rasm).

4.1 – rasm. Yoqtirib qolishning tashqi yoqimtoyligka bog`liqligi




Yoqtirib qolishga turki bo`luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o`rni, ijtimoiy maqomi, ma`lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qerda, kimlar bilan yashashi kabilalar kiradi. Ko`pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo`lgan insonlar o`zaro bir-birlarini tezroq yoqib qoladilar, chunki o`xshash belgilar yoki ko`ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg`unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlari tizimi, hayotdagi maqsadlarining mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlilik kabi qator jiddiy sifatlar ham turki bo`ladi. Shuning uchun talabaning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko`rishda “sevib qolishi”, safarda birga bo`lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o`rtasida romantik munosabatlarning uyg`onishi ehtimoli ko`proqdir.

Bir ko`rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabat-larga aylanishini tushuntirish uchun olimlar “uch filtr nazariyasi”ni ilgari suradilar (4.2 – rasm).

4.2 – rasm. Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi “uch filtr” nazariyasi



1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o`ziga qaratishi bilan bog`liq jarayon bo`lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko`zga tashlanadigan sifatlari (masalan, qiz bolaning sochi uzun, ko`zi moviy, yigitning bo`yi uzun, alp qomat kabi) asosiy rol o`ynaydi. Bunday munosabatlar ko`pchilikka xos, ya`ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda

boshqa bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o`zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o`tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg`un munosabatlar 3-filtrga ham o`tadi. Har bir filtrdan o`tishda sheriklar bir-birlari uchun o`zlarining yangidan yangi qirralarini ochaveradilar. Ya'ni, yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar uchun muhim bo`lgan asosiy narsa o`xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o`z munosabatini bildirishga intilishdir. Boshqa bir yo`nalish – bu sheri gida o`zida yetishmayotgan, o`zida mavjud bo`lmagan sifatni topish va uni o`zidagi sifat bilan uyg`unlanadirishga intilish. Masalan, o`zi o`ta tortinchoq bo`lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko`p kuzatilgan.

Uchinchi yo`nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni, yangi tanishda o`zidagi mavjud sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo`lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemtiklarni sheri gida orqali to`ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo`lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o`rgatadi.

## 10-Mavzu: YOSHLARNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

### Reja:

1. Yoshlarning intellektual sifatlarini aniqlashvva rag`batlantirish usullari.
2. Itellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida ishlab chiqilgan davlat Ta’lim standartlarida Ta’limning har bir bosqichida o‘quvchilar egallashi mumkin bo`lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimaldarajasi belgilab berilgan. Ammo bu bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida yoshlarning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa, yuqori samaradorlik ta’milanadi.

“Yoshlarni Ta’limlash jarayoni ma’naviy –intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan”<sup>1</sup>.

Intellektual salohiyatni oshirish har bir bolalning iqtidoriga bog‘liq. Iqtidorli talabalarni aniqlash ularning salohiyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yishdan oldin, qanday bola iqtidori bo‘ladi?- degan savol tug‘iladi, ushbu savolning javobini barcha barobar o‘ylash kerak.

«Iqtidorli bola» so‘zi haqida fikr yuritishdan oldin, «iqtidor» tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz lozimdir. Iqtidor – bu insonlarga xos bo‘lgan eng buyuk fazilatlardan biridir. Inson iqtidori o‘zida barcha insoniy fazilatlarni, qobiliyatlarni, hislatlarni ifodalaydi va mujassamlashtiradi. Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda «Iqtidorli bola» tushunchasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

«Iqtidorli bola» degenda, bu aniq maqsad sari intiluvchi, yuksak iste’dodga ega bo‘lgan qobiliyatli, shuningdek o‘zining dunyo qarashiga, madaniy-ma’naviy fazilatlarga, odobi va ahloqiy hislatlarga ega bo‘lgan, ruhan tetik, ma’nan va jismonan barkamol, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan, o‘z qalbida vatanparvarlik hissini jo qilgan, har qanday vaziyatlarda ham o‘zining kuchli irodasi bilan faoliyat yurita oladigan yoshlarni tushunamiz.

«Iste’dodli bola» deganda esa, biz bolaga olloh tomonidan berilgan iste’dodni, qibiliyatni tushunishimiz kerak. Iste’dod va qobiliyat insonda asosan tug‘ma bo‘ladi.

Iqtidorli bolalarni izlash va aniqlash tartibi qanday bo‘lish kerak?

Bolalar Ta’lim maskani tomonidan tuzilgan ichki komissiyaning maxsus suhbatidan o‘tishlari lozim.

Buning uchun ular quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

- 1) shaxsiy varaqqa , tarjimai hol.
- 2) sinov daftarchasidan ko‘chirma.
- 3) guruh rahbari tomonidan tavsifnoma.

1 Ирагимов Х.И.Абдуллаева Ш.А.Педагогика.(ўқув қўлланма). Тошкент:”Фан”,2004. 184-бет.

Ta’lim maskanidagi iqtidorli bolalarni maqsadli tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

Har bir Ta’lim maskanidagi iqtidorli bolalarni maqsadli tayyorlash quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

- iqtidorli o‘quvchilar safiga kiritilgan bolalarga tanlangan yo‘nalish (mutaxassislik fanlari) bo‘yicha, chet tili, informatika, milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat-ma’rifat asoslaridan kafedralarda tuzilib tasdiqlangan maxsus reja asosida qo‘srimcha mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim;

- iqtidorli o‘quvchilarini ilmiy maqolalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish, o‘sha Ta’lim maskanidagi ro‘znomalarda chop etishga ko‘maklashiladi, fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga va mualliflik jamoalariga jalb qilinadi;;

- iqtidorli talaba-yoshlar chet el grantlariga jalb qilinadi va xorijiy davlatlarga o‘qishga yuborish tashkil etiladi;

- iqtidorli o‘quvchi-talabalarni Respublika anjumanlarida, fan olimpiadalarida ishtirok etishi tashkil etiladi hamda ilmiy to‘garaklarga qatnashishini ta’minlanadi;

- iqtidorli o‘quvchilar safidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalariga nomzodlar tayyorlanadi.

Ta’lim muassasasidagi iqtidorli o‘quvchilarinig majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

Choraklik o‘zlashtirishi va sessiyada yuqori ko‘rsatkichlarni egallashi;

Chet el grantlariga qatnashishi;

Ilmiy izlanishi (maqola, tezis chop qildirishi);

Qo‘srimcha mashg‘ulotlarga qatnashishi;

Talabalar fan olimpiadasiga qatnashishi;

Prezident va atoqli shaxslar nomidagi Davlat stipendiyalari tanlovlari qatnashishi.

Ta’lim maskanlarida iqtidorli talabalar majburiyatining bajarilishi har o‘quv yilining fevral oyida attestatsiya o‘tkazish orqali aniqlanadi. Attestatsiya natijalariga qarab iqtidorli talabalarning iqtidorlilar safida qolish qolmasligi aniqlanadi. O‘zlashtirishi 70, 75 balldan past bo‘lsa, ular iqtidorli talabalar safidan chiqarish mumkin.

Biror sabablarga ko‘ra Iqtidorli talabalar safidan chiqarilgan talabalar keyingi yillarda tanlovlarda qatnashmaydilar.

Itellektual va ijodiy sifatlarning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyati

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan Ta’lim-Ta’limning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlari qilishi muhim sanaladi. o‘qituvchi o‘quvchilarning ruhiy xususiyatlari bilan birga yosh xususiyatlarini ham bilishi, ma’lum yoshdagi o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olish asosida faoliyat tashkil etish lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro‘y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi.

Bola va kattalar o‘rtasidagi muomila faol jarayondir. Mazkur jarayonda kattalar faqatgina o‘rgatuvchi bo‘lib qolmasliklari lozim. Bolaning bu jarayondagi faol ishtirokini ta’minalashga alohida ahamiyat berish kerak. Shundagina u o‘z harakatlarini o‘zi iroda qilishga, o‘z faoliyati mazmunini tahlil qilishga o‘rganadi. Bola mustaqil fikrlaydi, o‘ylab ish tutadi, uning ongi o‘sa boshlaydi.

Ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bola shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari, u istiqomat qilayotgan muhitning ta’sirini hisobga olishga bog‘liqidir. Shuni yodda tutish kerakki, bola majbur bo‘lgan mikro muhit mazmunini uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi kishilar va ular bilan o‘rnatalgan aloqa mohiyati belgilaydi. Bola oila a’zolari, Ta’limchi, o‘qituvchi, o‘rtoqlari, oilaga yaqin kishilar bilan munosabatda bo‘ladi. Ushbu aloqalar bolaning rivojlanishida g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Bolaga ularning ta’siri orqali muomalada bo‘ladi. Ana shu muomala asosida bola ajdodlar tajribasini o‘zlashtiradi, o‘zi uchun andoza tanlaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Shaxs ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy mavjudot bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar mahsuli sanaladi.

2. Shaxsning shakllanishi irsiy-ijtimoiy omillar hamda Ta’limga bog‘liqdir.

3. Shaxsning shakllanishida faoliyat o‘ziga xos, muhim xususiyatga egadir. Zero, shaxs faoliyat yordamidagina ijtimoiy borliq bilan bo‘ladigan munosabatni yo‘lga qo‘yadi, shu asosda uning bilish qobiliyati rivojlanadi.

4. Shaxs jismoniy va psixologik jihatdan kamol topib borar ekan, fiziologiya, pedagogika va psixologiya fanlarida “yosh davrlari” deb nomlangan bosqichlarni bosib o‘tadi. Yosh davrlari shaxsning yosh va psixologik xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhanadi: go‘daklik davri, yasli davri, mакtabgacha Ta’lim yoshi, kichik mакtab yoshi, o‘smirlilik davri va o‘spirinlik davri.

Kichik yosh davri. Mакtabgacha Ta’lim yoshdagи bolaning tafakkuri – aniq tafakkur bo‘lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o‘sha narsalar haqida fikr yuritadi. Shu bois bola uchun mavhum voqeа-hodisalar to‘g‘risida gapirilganda, ularning u avval o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lgan voqeа-hodisalarga nisbatan qiyoslab tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Atrofdagilar bilan muomalada bo‘lish asosida bolada ma’naviy qarash shakllanadi: endilikda ular turli xarakatlarni “yaxshi”, “yomon” deya baholab boradilar.

Bu davrda bola hayotida o‘yin bilan birga faoliyatning boshqa turlari ham ahamiyatli bo‘lib boradi, dastlabki mehnat ko‘nikmalari hosila bo‘ladi: rasm chizadi, loydan, qumdan turli buyumlar yasaydi. Shuningdek, ular kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqlarni bajarib boradilar. Ularni kuchlari yetadigan ishlarga jalb qilish yaxshi samara beradi.

Kichik mакtab yoshidagi 6 va 7 yoshga to‘lgan bola (ushbu yosh bir nechta mutafakkir olimlar tomonidan dastlabki “etuklik yoshi” sifatida e’tirof etilgan) jismoniy va ruhiy xususiyatlariga ko‘ra mакtabda Ta’lim olish uchun to‘la tayyordir.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Respublikamizdagи bolalarning barchasi 6 va 7 yoshdan boshlab umumiy o‘rtा Ta’lim mакtablarida tahsil ola boshlaydilar. Shu davrga qadar bola hayotida muhim o‘rin tutgan o‘yin faoliyati o‘z o‘rnini tizimli, uzuksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt asosida tashkil etiluvchi o‘qish faoliyatiga bo‘shatib beradi. 7 yoshli bola uchun bunday “mas’uliyatli mehnat”ga o‘tish qiyin kechsada, u asta-sekin bunday sharoitga ko‘nika boradi.

Kichik mакtab yoshi o‘quvchilarini ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lsalar ham, ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Mакtabda tashkil etilayotgan Ta’lim jarayoni bolaning aqliy faoliyati uchun zarur bo‘lgan fazilatlarning tarkib topishini ta’minlaydi.

Kichik mакtab o‘quvchilarining bosh miyasi tez o‘sib borib, uning tuzilishida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ularda o‘pka rivojlangan, lekin nafas yo‘li hamda diafragma bo‘sh rivojlangan, shu tufayli kichik yoshdagи o‘quvchilar ko‘p vaqt harakatsiz qolsalar, organizmning kislород bilan ta‘minlanishi yomonlashadi.

Jismoniy o‘sishning bu kabi xususiyatlari kichik yoshdagи o‘quvchilarga nisbatan o‘qituvchidan ehtiyojkorona yondoshuvni talab qiladi. Ularni erkin qo‘yish asabiyashishdan saqlash zarur. Bu yosh o‘quvchilarini ko‘proq harakat qilishlari, ochiq havoda bo‘lishlari, yetarli daraja dam olishlari, uxlashlari talab etiladi. Atrofdagilar buning uchun g‘amho‘rlik qilishlari lozim. Ularning stol atrofida, partada to‘g‘ri o‘tirishlariga, o‘rinda tekis (o‘rin yumshоq bo‘lmagan ma‘qul) yotishlariga, qomatni tik turib yurishlariga e’tiborli bo‘lishi kerak. O‘yin vaqtida qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur.

Kichik mакtab o‘quvchilarida ixtiyorli diqqat, xotira va idrok, tafakkur, ixtiyorli idora qilish, nutq, his-tuyg‘u, iroda kabi ruhiy jarayonlar rivojlanadi. Shu bois ular bilim olishga, o‘rganishga intiluvchan bo‘ladilar. Atrofda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarning barchasi ularni qiziqtiradi. O‘qituvchi ularning qiziqishlarini qondirishga harakat qilishlari va shu asosda ushbu qiziqishlarni rivojlantirib borishlari kerak.

Kichik mакtab yoshi o‘quvchilarining fikrashi obrazli bo‘ladi. Shu bois ularga kinoya, kesatish samara bermaydi. O‘qitish ko‘rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni tushuntirishda uning obrazli, ifodaviy bo‘lishiga erishish lozim. Ularning

kayfiyatiga o‘qishdagi yutuqlari, olgan baholari, shuningdek, amalga oshirgan ijobjiy ishlari ta’sir qiladi. Shu bois o‘quvchi tomonidan unga berilayotgan e’tibor bola uchun alohida qimmatga ega. Uning har bir harakati o‘qituvchining e’tiroziga sabab bo‘lsa, unda o‘qish istagi yo‘qoladi. Maktab Ta’limidan ko‘ngli soviydi, o‘qituvchidan qo‘rqanidan yolg‘on gapira boshlaydi. Bu hol doimiy takrorlanaversa, qo‘rroqlik va yolg‘onchilik uning asosiy hislati bo‘lib qoladi. O‘qituvchi tanbehi oqilona bo‘lib, bola sha’nini yerga urmasligi kerak. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar turli munosabatlarda bo‘lishga intiladilar, o‘rtoqlari bilan aloqada turg‘unlik yuzaga kelmagan, bиргина o‘rtoqdan ko‘ra, ko‘pchilik bilan o‘ynashini afzal ko‘radilar.

O‘smirlilik davri. Yoshlarni intellektual rivojlanirishda o‘smirlilik davriga alohida ahamiyat berish lozim. Shaxs rivojlanishidagi eng murakkab davr bo‘lib, u o‘tish davri deb ham ataladi. O‘tish davri bolalikdan balog‘at davriga o‘tishni ifodalaydi. O‘smirlilik yoshining murakkabligi uning anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘smirning faoliyatida o‘qish muhim o‘rin tutadi. O‘qish odatdagi ishga aylanib qolganligi uchun o‘quvchi-talablarning ortib borayotganligiga o‘smir befarq munosabatda bo‘ladi. Fanlarni o‘zlashtirishda qisman “pastlash” holati kuzatiladi. Ammo mustaqil topshiriqlarni bajarishda ijodiy faoliyat ko‘rsatishda ularning zukkoligi seziladi. O‘smir intizomida salbiy holatlar ko‘rina boshlaydi. Bu hol uning mustaqil bo‘lishiga intilishi asosida yuzaga keladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchi xususiyatini yaxshi bilmasa, qo‘yilayotgan talablarda birlik, yaqinlik bo‘lmasa hamda ular asoslab berilmasa, o‘smirda kattalarga bo‘ysinmaslik kabi salbiy xususiyatlar qaror topadi va uning xarakter xususiyatiga aylanadi. O‘smir o‘quvchining e’tiborini o‘qishdan tashqari ishlar o‘ziga jalb qiladi.

Jamoat ishlariga o‘smirlarni faol jalb etish ularda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni tartiblaniradi. O‘smir uchun tengdoshlarining e’tibori, jamoaning fikri unga ota-onasiga va o‘qituvchi fikridan ham ko‘proq ta’sir qiladi. Shuning uchun u tengdoshlari o‘rtasida obro‘orttirishga, liderlikka intiladi. Agar u o‘zini o‘qish va jamoa ishlarida ko‘rsata olmasa, yomon hulqli o‘quvchi bo‘lib tanilishiga ham rozi. Bu esa aksariyat hollarda o‘smirni kriminal mikromuhitga tomon yetaklab borishi ham mumkin. Bu kabi holatlarning oldini olishda eng to‘g‘ri yo‘l- har bir o‘smir uchun o‘z kuchi va imkonyatlariga loyiq jamoa topshirig‘ining o‘zining berilishidir. Shundagina o‘smir jamoa uchun kerakligini anglaydi.

O‘smirda o‘z his-tuyg‘ularini idora qila olish layoqati endi-endi shakllana boradi. Bu uning hulqida namoyon bo‘ladi: o‘zining, har narsaga jahli chiqish, qo‘pollik holatlari tez-tez yuz beradi. o‘smirlarning bu xususiyati ko‘proq babs-munozara jarayonida ko‘zga tashlanadi. Garchi o‘z fikri asosli bo‘lmaseda, uni ma‘qullashga urinadi. 13-14 yoshlarda o‘smirlarda burch hissi, mas‘uliyat tuyg‘usi o‘sadi, bir muncha vazminlik paydo bo‘la boshlaydi. Bu davrda o‘smirda maqsadga intilish, o‘zi uchun ideal tanlash istagi vujudga keladi. O‘smirlarda axloqiy e’tiqod, qarash kabi sifatlar tarkib topadi. O‘smir hayotida xayol alohida rol o‘ynaydi. O‘qituvchining vazifalaridan biri uning xayoliy dunyosini maqsadli ishlarga yo‘naltirishdan iboratdir.

Demak, o‘smir bilan munosabatda bo‘lishda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o‘quvchilarni to‘g‘ri Ta’limlashning garovidir.

Barkamol ijodkor yoshlarni Ta’limlash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. Ta’lim yordamida muhitning salbiy ta’siri natijasida yuz bergen kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

2. Ta’lim inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini ta’minalashda yetakchi rol o‘ynaydi.

3. Insonning ma’nnaviy o‘sishi sodir bo‘ladi, muhitni stixiyali ta’siri bera olmaydigan sifatlar shakllanadi. Masalan, bola o‘z ona tilini atrofni o‘rab turgan muhitning ta’sirida o‘rganib olishi mumkin. Lekin o‘qish va yozishni maxsus Ta’lim yo‘li bilangina o‘rganadi. Ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar faqat Ta’lim jarayonida egallanadi.

4. Ta’lim yordamida hatto kishining ba’zi tug‘ma kamchiliklarini ham ijobjiy tomonga o‘zgartirish mumkin. Chunonchi, ba’zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug‘iladi (kar, ko‘r,

soqov va hokazo). Lekin maxsus tashkil etilgan Ta'lim yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lмаган kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Shaxs - O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelida muhim o'rinni tutadi va shaxsning barkamolligi, uni o'z kasbini puxta egallagan mutaxassis sifatida Ta'limlashning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishi zarurligiga alohida e'tibor berildi. Islohotlarning amalga oshirilayotgan sifat bosqichidagi muhim vazifa ana shu maqsadni samarali texnologiyalar bilan ta'minlashni, bu esa, avvalo vositalar, uslublarni metodologik ta'minlashni talab qiladi. Zero, vositasiz maqsad - hech narsani o'zgartirmaydi.

Bunda barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirishning metodologiyasi bu kadrlar tayyorlash milliy modeli asosiy tushuncha va tamoyillarini talqin qilish, ularni amaliyotga tadbiq qilish jarayonlarini ilmiy o'rganish, o'zgartirish uslublari majmuasi, degan ta'rif paydo bo'ladi. Bu bilan metodologiya tushunchasiga xos bo'lib kelgan nazariylik amaliylik bilan bog'lanadi.

Kadrlar tayyorlash miliy dasturining tadbiqi kishining jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi. Zero, har bir inson o'smirlik, ya'ni voyaga yetish arafasidanoq jamiyatda o'z o'rnini topa olishi va belgilay bilishi lozim. Aks holda bu uning hayot yo'llarida sarson, maqsadsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Bu esa yoshlarning o'ziga ishonchini so'ndirishi, ayrim hollarda jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslikka, o'z foydasi va jamiyat foydasini ta'minlay olmasligiga sabab bo'ladi. Demakkim, uning shaxs bo'lib shakllanishi guman bo'lib qoladi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tadbiq etish bilan ana shunday salbiy oqibatlarning oldi olinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli jamiyatimizning keng potensial salohiyatidan foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Odamlar olomon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z xulosasi, o'z mehnati bilan yashay boshlaydi. Eng asosiysi bunday kishilarga chetdan hech qanday nopol kuch, buzuq g'oyalari, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan ta'sir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'z tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch adashtira olmaydi. Aynan shu hislatlar, milliy xavfsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan. Bu yo'lda birinchi, lekin juda muhim qadamlar qo'yilgan. Kadrlar tayyorlash miliy dasturining hayotga tadbiq etilishi xalqaro jamiyatda o'z o'rnimizni mustahkamlashga olib keladi. Negaki dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaksi, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlida, ilg'or texnologiyalardadir. Prezident I.A.Karimov tomonidan ta'kidlangan: «Kuch – bilim va tafakkurda» degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Bu hikmatgi amalga oshirishda dastlab «Barkamol avlod orzusini», ya'ni maqsadni quyidagicha ifodalab oldik: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjati. Bunda birinchidan, milliy dasturni to'liq bajarishga erishish, ikinchidan, butun xalqni mazkur sababli ishga to'liq jalb qilish, uchinchidan, yetilgan muammoni hal etishda mazkur ishlarning mazmun mohiyatiga tushishga erishish va to'rtinchidan, har bir fuqaroning belgilangan vazifalarining bajarilishiga ishonch hosil qilishga va bu jarayonga munosib hissa qo'shishga ishtirot etish istagini borligiga erishish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangan «Ijodkorlik va barkamol avlod orzusi»ni amalga oshirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish vazifalari belgilab olindi:

Chizm  
вазифалари

«Ижодкорлик ва баркамол авлод орзуси»ни амалга ошириш



Mazkur asoslarni e'tiborga olib, ilmiy bilishning deduksiya tamoyili asosida barkamol shaxsni shakllantirishni quyidagicha ifodalab o'tdik. Bunda shaxs Ta'limini rostlab turish maqsadida muntazam ravishda ilmiy – uslubiy ta'minotiga e'tibor berilib borildi va jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlar bo'yicha axborot ta'minotiga e'tibor qaratilishi lozimligi aniqlandi.

Shu yo'sindagi olib borilgan Ta'lim – Ta'lim oxirida barkamol shaxsga qo'yilgan talab bilan (mezon bilan) Ta'limlangan shaxsdagi intelektual salohiyati solishtirilib ko'rildi va mezon bo'yicha talablar bajarilgandan keyin tayyor mutaxassis «Mehnat bozori»ga yo'llanma beriladi.

Ta'lim-Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir maqsad belgilab olinadi, qonunlar qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, Ta'lim-Tarbiya oldida loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda "shaxsni shakllantirish" ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni barkamol shaxs Ta'limining maqsadi, mazmuni, Ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, bu ham o'ziga xos texnologiyadir.

Ma'lumki, Ta'lim-Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir maqsad belgilab olinadi, unga erishishning me'yoriy-huquqiy asoslari qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi. Demak, Ta'lim-Ta'lim jarayonini amalga oshirish oldidan ma'lum tizimda uzviy loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda "barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirish" ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni barkamol shaxs Ta'limining maqsadi, mazmuni, Ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, uning o'ziga xos texnologiyasi mavjud.

Demak, ijtimoiy hayotda insonni dunyoni o'zgartiruvchi, qudratli kuch sifatida uning manfaatlarini himoya qilgan xolda, ko'p qirrali ijodiy imkoniyatlarini beqiyosligini tushungan tarzda inson mohiyatini anglab yetish, uning borlig'i, hayotda tutgan o'rni va hayyoti ma'nosini ochib berishga munosabatning o'zgarishida namoyon bo'lmoqda.

Bu esa shaxsni tarix, jamiyat va o'z xayotining ob'ekti sifatida bilishi shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatini vujudga kelgan bir sharoitda insonni ijodkor, erkin shaxs sifatida shakllantrishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakat taraqqiyotini, xalqning tinchligini, o'ziga bosh maqsad qilib olib, mustaqallikni mustahkamlash va taraqqiy ettirish borasida o'sib kelayotgan avlodga e'tiborni ustivor vazifa deb belgiladi.

Mustaqil fikrlaydigan, o'z huquq va vazifalarini to'la anglagan, vatanparvar, fidoiy, bilimdon – yangi ongga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish islohat markaziga qo'yildi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, avvalombor, mavjud Ta'lim sohasini chuqur tahlili qilish va takomillashtirish zarurligi ko'rsatildi.

Ta'lim tizimi sohasida 1997 yiga qadar ma'lum ishlar, yangiliklar amalga oshirildi, chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Biroq, bu chora – tadbirlar davlatimiz oldida turgan vazifalarni amalga oshirishdagi talablarga to'la javob bera olmas edi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi; badiiy, falsafiy, pedagogik tafakkurning shaklanishi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy – tadqiqotlar saviyasini tubdan o'zgartirish, yangi pog'onaga ko'tarish, pedagogika yo'naliشining yangi Ta'limoti, mazmuni, mohiyatini yaratish, yangi ilmiy maktabini barpo etish taqozo etiladi. Tarixiy merosni yangi zamonaviy metodologik asosda o'rganuvchi yosh olimlarni tayyorlashning prinsipial yangi ilmiy maktabini yaratish; bolalar va yoshlar uchun ilmiy ommabop va axborot-ma'lumot adabiyotlarni nashr etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilishi zarur.

Ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgani turmush sharoiti, Ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalaring berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

Ta'lim – Ta'lim va kasb - hunar dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash Ta'lim jarayonini tabaqlashtirish muammosi bilan uzviy bog'liqidir. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzlusiz Ta'lim tizimiga Ta'limni tabaqlashtirish prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Barkamol shaxs kamol topishi ko'p jihatdan uning kasbiy madaniy munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Kasbiy madaniy munosabalarning iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va boshqa munosabatlardan o'ziga xos bo'lgan jihat shundaki, bu munosabat asosan ahloqiy, aqliy, mehnat, kasbiy, nafosat, ekologik va boshqa Ta'lim turlari bilan sintezlanadi. O'spirin yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini quydagi tartibda aniqlash ham mumkin:

#### Chizma-8

Yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini aniqlash tartibi				
O'zini – o'zi tahlil eta olishi va o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lishi	Vaqtin i taqsimlay olishi va undan unumli foydalana bilishi	Egallay otgan kasbi hayot faoliyatida ong va dunyoqarashinin g boyishiga	So'zi va ishi-ning birilgi hamda ular har doim bir-biri-ni to'ldirib borishini anglashi	O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olishi

<p>Yangi fikr va g'oyalar bilan chiqishi; ijodkorlikka intilishi; ilmiytadqiqiot ishlarida faol qatnashishi.</p>	<p>Bozor munosabatlari va yangi mulkchilik sharoitida ijodiy faoliyat ko'rsata olishi</p>	<p>Kasbiy va madaniy kamolatga olib kelishini anglashi; o'qituv chilik kasbini ijodiy mehnat ekanligini his etishi; o'zining kasbiy fazilatlarini baholay olishi.</p>	<p>Ta'limgarayonida noan'anaviylik munosabatini qo'llashga intilishi; zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalarini amalga tadbiq eta olishi.</p>	<p>o'quv – metodik yangi texnologik talablar darajasida o'zlashtira olishi; sog'lom avlod Ta'limsiga o'z hissasini qo'sha olishi; ijtimoiy buyurtma va Ta'limgarayonida standartlari talablarini bajara olishi.</p>
--	---	---	---	---

O'quvchi-talabaning egallayotgan kasbiga qiziqishi shaxsiy burchi va ma'suliyatining shakllanishi, suhbatlar va bahs munozaralar jarayonida muloqot madaniyatining shakllanishi jamoada, ayniqsa o'zaro shakllanib kelayotgan ziddiyatlarni bartaraf etishga va shaxslararo munosabatlarning sog'lom hamda demokratik asosda o'tishiga olib keladi. Ma'sul shaxslar va rahbarlarning bo'lajak mutaxassislar bilan bo'ladigan kasbiy-madaniy munosabatlarida uchrashi mumkin bo'lgan ziddiyatlari va muammoli vazifalarni o'z vaqtida hal etish imkoniyatlari yaratiladi

Barkamol shaxs kasbiy-madaniy munosabatlarining shakllanishida samimiylilik muhim o'rinn tutadi. Samimiylilik insonlarga o'z kasbini chin dildan seva oladi. Bunday insonlar shaxsiy burchini yaxshi anglaydi. o'z lavozimini suiste'mol qilmaydi. Kasbini sevadi va ardoqlaydi. o'qituvchilik kasbida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini bag'ishlaydi. Bunday kasb egalari fidoiy, iymon – e'tiqodli bo'ladi. o'z yurtini, ona – diyotini dildan yaxshi ko'radi. Kasbini ardoqlagan, bilimdon insonlar, albatta, madaniyatli bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, kasbiy – madaniy munosabatlar asosida milliy g'oya va g'urur turadi. Barkamol inson shaxs va fuqaro sifatida o'z ona tilini hamda millat tarixini mukammal bilmog'i lozim. Ana shunda dinni, urf-odatlarni, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni e'zozlaydi, undan doimo fahrlanadi. Faxrlanish tuyg'usi sog'lom fikr ruhida o'z shogirdlariga o'tadi. Fikrlarni g'oya darajasiga ko'tarish uchun uning ta'sirchanligi, salmog'i va samaradorligiga erishish lozim. o'zlikni anglash o'quvchi va talaba yoshlarda vatanparvarlik hamda xalqparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, ona- Vatanni har xil yovuz kuchlardan omon saqlashga da'vat etadi.

Milliy g'oyani shakllantirishdagi muhim yo'naliishlardan biri bolalar va yoshlar uchun o'quv – metodik, ilmiy ommabop va badiiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishdir. Mayjud adabiyotlarga har taraflama ilmiy baho berish orqali xalqimizning boy ijtimoiy-madaniy, tarixiy an'analari, urf – odatlari va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettiradigan kitoblar, o'quv qo'llanmalar, badiiy adabiyotlarni yaratish zarur. Bu ishga ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida eng ko'zga ko'ringan namoyandalarni jalg etish zarur.

Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unitilmas hissa qo'shgan olimu fuzololarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirilgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarni har taraflama o'rganish va targ'ib etish darkor.

Mamlakat aholisining umumiy va kasbiy madaniyatini ko'tarish maqsadida madaniy – ma'rifiy ishlarning sifat darajasini yaxshilish. Bunda ommaviy axborot vositalarining ma'rifiy ishini faollashtirish muhim. Bolalar va yoshlar uchun tayyorlanadigan teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlarni «intelлектуаллаштириш ва ма'naviy – ахлоқија боитиш» borasida ulkan vazifalar amalga oshirilishi lozim.

Shu munosabat bilan Vatanimiz madaniyatini va san'atining Ta'limgarayonida qo'llanilishini rivojlantirish, uni chet elda targ'ib qilish, milliy va xalqaro konkurslarda san'atimiz namunalari bilan ishtirok etish masalalarini keskin takomillashtirish, istiqbolda yoshlarimizning badiiy ijodkorligini rivojlantirish lozim.

Yosh avlodni milliy g‘oya, milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida Ta’limlash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom tur mush kechirish asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yosh avlodda hayotiy faollik, axloq, insonparvarlikning yuksak g‘oyalarini Ta’limlash – jismoniy Ta’lim va sportning shakllari, uslub va vositalarini qo‘llashning ustivor vazifalari bo‘lishi kerak.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, bolalar sport harakatining vujudga kelayotgani, maxsus jamg‘arma tashkil etilib, uning faoliyatini shakllantirish. Shu maqsadlarda sport inshoatlarining qurilishi va ishga tushirilishi. har bir tuman, qishloq, mahalla miqqosida barcha bolalarni sport harakatiga jalb etilishi; musobaqalarda qatnashadigan yoshlarning ruhiyati, ularning bayrog‘imizga bo‘lgan munosabati, uni avaylab qalbida asrashi, bayrog‘imiz xilpirab ko‘tarilganda quvonchdan, g‘ururdan ko‘zga yosh kelishidan ko‘rish mumkin.

To‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi, jamiyatda yangi ong, yangi tafakkurga ega bo‘lgan, milliy istiqlol g‘oyasi negizida shakllangan shaxsnинг Ta’limlanishi mustaqilligimizni mustahkamlashda asosiy poydevor bo‘ladi.

Har tomonlama yetuk shakllangan, komil inson g‘oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Milliy model nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o‘z sohasi bo‘yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy – tarixiy psixologik namuna bosqichiga o‘sib o‘tadi, o‘zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi.

Bu darajadagi shaxsnинг xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:  
yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik;  
xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o‘z imkoniyatlarini oqilona baholash;  
ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining yuksak boso‘ichi bo‘lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo‘yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egalik bilan xarakterlanadi;  
uzluksiz ravishda yangiliklarga intiluvchanlik, ijodiy yechimlarni amalga oshirishga qobillik;

o‘z iqtidori va ijodiy salohiyatini amaliy ifodalanishini ta’minalash;  
har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish;

har tomonlama rivojlangan shaxsnинг navbatdagi kamolot boso‘ichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-tuyg‘ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy yetuklik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy ong ko‘rinishlariga oqilona yondoshish.

Komil inson shaxsining umum insoniy qadriyatları yoxud ijobjiy hislatları, o‘zbek xarakteridagi ijobjiy hislatlarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi qanday tuziladi?

Prof. B.Ziyomuxammadovning2 fikriga ko‘ra to‘g‘ri Ta’limga molik umuminsoniy ijodiy hislatlarni va fazilatlarini quyidagicha deb tasavvur etish mumkin:

Birinchidan ishbilarmonlik hislatlar va fazilatlar: ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsosalilik, serharakatlik, mas’uliyatlilik, halollik, insofililik, malakalilik, bekami ko‘stlik, sifatlilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, botartiblilik, tadbirkorlilik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta’masizlik va boshqalar.

Ikkinchidan, zukkolik, idroklik hislatlar va fazilatlar: zehnlilik, boma’nilik, xotirjamlik, sog‘lom fikrlilik, donishmandlik, asoslilik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlilik, lo‘ndalik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Uchinchidan, sobitlik hislatlar va fazilatlar: faollik, qat’iyatlilik, tezkorlik, kuydipishdillik, jo‘shqinlik, zardalilik, sabotlilik, bir so‘zda turishlik, barqarorlik, botirlik,


dovuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsiyi tiyishlik, o‘zini yo‘qotmaslik, sovuqqonlik, o‘ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o‘zini iroda eta bilish va boshqalar.

To‘rtinchidan, shaxsnинг umumiy hislatlar va fazilatları: yoqimlik, ko‘rkamlik, jozibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug‘sifatlik, o‘ziga hoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlichkeit, Ta’limlanganlik va boshqalar.

Beshinchidan, shaxsnинг axloqiy hislatlar va fazilatları: insonparvarlik, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik, samimiylilik, kuyunchaklik, odamiylilik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmondo‘stlik, xushaxloqlik, hajmihatlik va boshqalar.

Oltinchidan, ehtiroslilik hislatlar va fazilatları: nekbinlilik, ko‘tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, ishonuvchanlik, hayolchanlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, oljanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, uyatchanlik, hijolatlilik, iffatlilik va boshqalar.

### Chizma-9



Jarayonning qay maqsadga yo‘naltirib, kelib chiqadigan muhim vazifalarni bajarishga bog‘liq. pedagogika fanining maqsadi Ta’limchi - o‘qituvchilarining ongli faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, uning o‘z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi tanlangan vosita va usullarining qo‘llanishi natijasini ko‘ra bilish kabi Ta’limchilik san’atini o‘rgatishga qaratiladi.

Bugungi kunda barkamol avlodni Ta’limlash borasida respublikamiz pedagogika fanining maqsadlari quyidagilar bilan belgilanadi:

barkamol insonni voyaga yetkazish muammolarini majmuaviy tadqiq etish;

Respublikamizda Ta’lim-Ta’lim samaradorligini uzluksiz oshirib borish va jahon talablari darajasida taraqqiy etishiga erishish;

umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, Ta’lim-Ta’lim mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

Ta’limshunoslik asoslarini ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish va uning yangi shakllarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish;

bo‘lajak o‘qituvchi va Ta’limchilarni barkamol avlodni shakllantirish uchun talab etiladigan bilim va ko‘nikmalar bilan quollantirish;

uzluksiz Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal qilish.

Ushbu maqsadlarga erishish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi taqozo etiladi:

- komil inson tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;
- pedagogika - Ta’limshunoslikdagi Ta’lim-Ta’lim nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;

- Ta’lim-Ta’lim nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini Ta’lim muassasalari amaliy faoliyati bilan bog‘lab, bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish;

- Sharq va g'arbda xalq yaratgan xalq og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning Ta'limshunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil inson Ta'limlash jarayonini o'rganish.

Inson rivojlanishi – bu uning a'zolarini miqdor va sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir. Rivojlanish natijasi – kishining ham biologik ham ijtimoiy mavjudligidir. Biologik rivojlanish bu o'zida inson a'zolarini bioximik, fiziologik va morfologik o'zgarishlarini esa inson ongingin ma'naviy va aqliy kamolotga erishish jarayoni sanaladi. Materialistik falsafa Ta'limoti nuqtai nazaridan, rivojlanish – bu yirik materiya bo'lib, materiya harakatining o'ziga xosligidir. Bu harakatda eskilari o'lib, yangilari paydo bo'laveradi.

Inson rivojlanishi juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Inson rivojlanishi borasida bir qator ilmiy nazariyalar mavjud. Masalan, psixolog olimlar – M.G.Davletshin, G'.Shoumarov, E.G'oziev, Z.Nishonova, V.Karimova va boshqalar oliy psixologik hosilaning madaniy-tarixiy rivojlanishi nazariyasini ilgari surdilar.

Quyida ana shu nazariyaning asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz:

Hozirgi zamon kishisining ruhiyati va hulqi ikki jarayon munosabatlarining biologik yetilish va bilish natijasidir. har ikki jarayon ham bola dunyoga kelishi bilan paydo bo'ladi va rivojlanish yo'llarida bir-birlari bilan amaliy ravishda uyg'unlashadi.

Har qanday ruhiy hosila o'z irsiyati bo'yicha tug'ma, tabiiy yoki madaniy bo'ladi.

Belgi va qurollardan foydalanish kattalar tomonidan bolalarga dastlab munosabat va birgalikdagi ashyoviy faoliyatni tashkil etish chog'ida ko'rsatiladi.

Tarixiy-madaniy jarayonda inson turli tuman qurollarni yaratdiki, ularning ichidan eng muhimlari mehnat qurolli, til va sanoq tizimlari bo'lib, inson ulardan foydalanish sirlarini o'rganib oladi.

Yozuvdan foydalanish turlari inson idrok etishdan tortib to fikrlay olish vazifalarini bajara boshladi. Odamlar tomonidan turli tarixiy davrlar ijtimoiy qurolning ikki turi bunyod etildi. U birining yordamida (mehnat quroli) tabiatga ta'sir ko'rsatsa, boshqasi (belgilar tizimi) bilan o'ziga yordam beradi.

Mehnat qurollari va tanish tizimlarning amaliy faoliyatda qo'llanishi odamning bevosita ruhiy jarayonidan bevosita ruhiy jarayonga o'tishining boshlanishidir. Ya'ni, boshqaruv vositasi sifatida xuddi shu qurollar va belgilar ishga tushadi.

Ta'lim olish bolaga o'z hulqi (faoliyati) va ruhiy jarayonlar (xat xotirani yaxshilash, uning imkoniyatlarini kengaytirish, so'z esa idrok va diqqatni boshqarish vositasi)ni qurol yoki belgilar yordamida boshqarishda tajribaday bo'lib tuy'o'ladi.

Qurollar va belgilar dastlab boshqalarning hulq-atvorini boshqarish vositasi bo'lib, keyinchalik bolalarni Ta'limlash vositasiga aylanadi.

Mashhur psixolog olim S.L.Rubinshteyn inson rivojlanishi xususida o'ziga xos yondashuvni ilgari suradi. Unda asosan inson Ta'lim va Ta'lim jarayonida ro'y beradigan ta'sirlarga tayyor holda tug'ilalar ekan. Shu bois bolalar kattalar ta'sirida rivojlanib, insoniyat yaratgan madaniyat mazmunini egallab boradi. Bola rivojlanmaydi ham, Ta'limlanmaydi ham, aksincha, Ta'limlanib va o'sib rivojlanadi, ya'ni bolaning yetilishi va rivojlanishi Ta'lim va Ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi, hamda takomillashadi.

Rivojlanish va Ta'lim, rivojlanish va Ta'lim birligiga asoslangan jarayonlarning bir-biriga sig'ishib ketishi yagona tizimni tashkil etadiki, unda sabab va oqibat to'xtovsiz quriladi, balki yetilish unga poydevor yaratadi va o'zi ham yetilish va rivojlanishga omil bo'ladiyu Ta'lim olish jarayonida bolaning qobiliyati namoyon bo'libgina qolmay, shakllanadi ham. Xuddi shunday, Ta'lim va Ta'lim jarayonida ro'y beradigan shakllanish va o'zgarishlar tufayli inson xarakteri qaror topadi. Bolaning ruhiy xususiyati muayyan shart-sharoit, shuningdek, Ta'lim va Ta'lim jarayonida yuz beradigan rivojlanishning natijasi hamdir. Qulay sharoitning mavjudligi bolaning rivojlanishida samarali natijalarga olib keladi.

Rivojlanish jarayonining har bir o'tish davri quyidagicha uch qonuniy almashuvlar asosida kechadi:

Faoliyat olib borayotgan mazkur tipning o‘z kuchini maksimal darajada sarflashi va eng yuqori darajaga ko‘tarilishi.

Faoliyatning muayyan rivojlanish davri.

Faoliyatning to‘yinshi va uning boshqa jihatlarining (ashyoviy va kommunikativ) faollashuvi.

Agar bolalarning rivojlanish jarayonida yetakchi faoliyatlarni bir tizimga keltirsak quyidagi tartib yuzaga keladi:

Bolaning ilk, ya’ni, bir-uch yoshlariagi faoliyatida ijtimoiy-madaniy maqsadlarga to‘liq yo‘naltirilmagan turli o‘yinchoqlar va atrofdagi narsalar bilan ovunishi va kattalar bilan o‘zaro sust munosabati.

Voqeiy timsolli o‘yinlar – o‘yin faoliyatida ijtimoiy hodisalarini anglatuvchi va qatnashchilarining timsolli shakldagi xarakterli jihatlari.

O‘qish-o‘rganish faoliyati – o‘qish va kichik maktab yoshi davrida (olti-etti va o‘n-o‘n bir yoshgacha) ustunlik qiluvchi o‘zaro munosabatlarni qo‘shib olib borish.

Bolalar rivojlanishida aniq ko‘zga tashlanuvchi ikki davr mavjud. Ulardan birinchisi, ilk bolalik davridan maktabgacha bo‘lgan davr bo‘lib, “uch yillik inqiroz deb atalsa, ikkinchisi kichik maktab yoshidagi davr bo‘lib, o‘smirlikkacha bo‘lgan “o‘smirlilik davrining inqirozi” deb nomlanadi.

Ushbu davrlar bolaning bir rivojlanish darajasidan ikkinchisiga o‘tish davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar o‘rtasida Ta’lim va Ta’lim ishlarini faol olib borish kerak. Aksariyat kishilarining ruhiy xususiyat va hulqiy odatlari ularning senzetiv rivojlanish davrida qaror topadi. Bolaga pedagogik tasir ko‘rsatish senzetiv davrlarda o‘z samarasini beradi. Bu o‘quv-Ta’lim jarayonlarining asosiy ruhiy-pedagogik shartidir. Tafakkur darajasiga ko‘ra bola maktab yoshiga yetganda o‘quv dasturlari talablarini bemalol bajara oladi. o‘qitishga ruhiy jihatdan tayyorlash aynan shu bilan kifoyalanadiyu rivojlanish jarayonlarida his etish, diqqat, idrok, xotira, fikrlash, qobiliyat kabi shaxsiy xususiyatlar shakllanadi. Boshlang‘ich maktab yoshida bolada o‘zini tutab ilish, mehnat va o‘qish layoqati, odamlar bilan munosabat qila olish ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak.

Ruhiy jarayonlar va bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari so‘z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy psixologik rivojlanishga taalluqlidir.

Shaxs rivojlanishida faoliyat turlari (o‘yin, o‘qish, mehnat va boshqalar), mazmuni (maqsadga yo‘naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo‘lishi, samaradorligi va h.k.), shuningdek, axloq (muomala hamda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni), ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga bo‘ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas’ullik kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqqiy etib borishi muhim o‘rin tutadi. Shaxs sifatlarini anglash va ularni to‘g‘ri aniqlash uchun uni turli munosabatlar jarayonida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Demak, shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo‘lib, ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy mavjudotdir.

## **11-Mavzu: YETULIK DAVRNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

### **Reja:**

1. Yoshlik davri va uning o‘ziga xos psihologik hususiyatlari
2. Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psihologik hususiyatlari
3. Etuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psihologik hususiyatlari

Tayanch so‘zlar: Yoshlik davri, yetuklik davri, mehnat, idrok, faoliyat, individ, individual yondoshish, inson psihologiyasi, irsiyat, iste’dod, ishonch, kasb tanlash, malumot, metod, mahorat, mutaxassislik, tashabbus, psixik holat.

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos hususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi: 1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining hususiyatiga moslashish (ko'nikish) mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o'z o'rmini topish va qadr-qimmatga erishish; 2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasи 3 yildan 8 yilgacha - ish stoji nazarda tutiladi) yoki kasbkorlik, mahoratini egallah; 3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish. Yuqorida bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oly ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart. Xozirgi mutaxassislarning ko'pcxiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z mohiyatiga ko'ra uch xildir, ular: a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhiti shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kisxilarning xarakter hislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlari, ma'naviyati, an'analari va hokazo; b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning yetishmasligi va boshqalar; v) mutaxassislik bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar: ishlab chiqarishning mohiyati, hususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblar, amaliy ko'nikmaning bo'shligi yoki ular bilan yetarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to'la anglab yetmaslik, xavfsizlik texnikasi mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik ifodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni yengish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayonlari va hususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psihologlari Fulds, Raven, Pako kabilalar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananев o'zining ilmiytadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiylu ruhiy holat, verbal va noverbal aqliy (mantiqiy va mnemik funksiyalar) sodda jarayonlargacha (organizmda issiqlik paydo bo'lischen metabolizm - modda almashinuvgacha), hatto shaxsning hususiyatigacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlil i orqali ko'rsatib o'tadi. Ko'zlarning farqlashdagi sezgirligi inson yoshiga qarab o'zgarishini tadqiq qilgan S.V.Kravkov sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta'kidlaydi. B.G.Ananев laboratoriyasida olingen natijalar inson funksional darajasining oshishi 23-27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funksional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funksional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikrodavrлarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati har xil kechishini ko'rsatib turibdi. YU.N.Kulyutkin katta kisxilarning diqqat, xotira, tafakkur bilish jarayonlarini birgalikda o'rgangan. YU.N.Kulyutkin o'z tadqiqotida 0-130 shkalagacha oraliqni tekshirib, 22-25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5 tafakkur 102,5 ballga tengligini, 26-29 yoshlarda esa diqqat 102,8, xotira 97,01 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim, V.Shevchuk voyaga yetgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq qilib, 11-20 yoshlar oralig'ida 12,5 foiz, 21-30 yoshlarda esa 66 foiz ekanini aniqladi. Ziyolilarning ilmiy mahsuli dinamikasini o'rgangan Z.F.Esareva uning boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, psihologlarda 27-30, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlarni tashkil qilishini ko'rsatib o'tadi. Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga

kirishish eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu hol odamlarning 45,4 foizida bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto, u 45 yoshda 3 foizga teng bo'ladi. Kisxilarda ko'rish maydoni chegarasi (idrok) hususiyatini o'rgangan L.N.Kuleshova va M. D. Aleksandrovalar 18-35 yoshlardagi haydovchilarda uning uch xil: normadan ortiq 11 foiz, normada 47 foiz, qolganlarida etalon bo'yicha normadan kam bo'lishini ta'kidlaydilar. 23-28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o'zgarishi, takomillashuvi: ko'rish maydonining ko'lami, ko'z bilan masofani chandalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari, anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarmasligining o'sishi boshqa faoliyat va ko'rish ta'sirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo'ladi. 22-25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemologik (xotira, tafakkur) va attensional (diqqat hususiyati va xossasining) majmuasidan iborat bo'ladi. Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psihologik mexanizm, ya'ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psihologik iqlim, ma'naviyat olami, barqarorlikni, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlari, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakter ida ijobjiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai-nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo'shilgan a'zo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsa-da chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psihologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'onga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shixs xarakter ini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir. Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiallik,adolatlilik singari hislar, shaxsiy nuqtai-nazar bo'shashib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi. YOshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart. Oiladagi shaxslararo munosabatning ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanish kerak. Lekin oila tinchligi, totuvligi va axilligiga halal bermaslik niyatida yosh yigit va qizlar (kelinlar) vijdon amriga qarshi xatti-harakat qilishga ham majbur bo'ladilar, o'z maslaklari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan umumiy "til" topishga intiladilar. Shunga ko'ra oila muhiti ham yigit va qizlarning ruhiyati hamda ma'naviyatini o'zgartiradigan omil vazifasini o'taydi. Inson uchun psihologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va hulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'star ra'yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakter ida o'zgarishlar yuzaga keladi. Yuksak hislar, barqaror e'tiqod, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyg'ulari poymol bo'ladi, ya'ni "Do'sting uchun zahar yut" qabilida ish tutiladi. Natijada mas'uliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafolik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarni ishbilarmonlikni, amaliy ko'nikmalarini egallash imkoniyati ham bo'ladi. Shu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtai nazaridan yondashmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanishga ham harakat qilish ayni muddaodir. Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalgarda, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'l-ko'lcxiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati - yoshlarga bog'liq, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma'naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Yoshlik davri va uning o'ziga xos psihologik hususiyatlari Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos hususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jahbalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalgam oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlardan farqlanadi: Mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish

shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining hususiyatiga moslashish, ko'nikish mutaxasis sifatida o'zini takommilalshtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish. Yuqorida bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliv ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart. Psixofiziolog P.P.Lazerevning fikricha, eshitish, ko'rish, pereferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psihologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananev o'zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiyluhiy holat, verbal va noverbal aqliy sodda jarayonlargacha, xatto shaxsning hususiyatigacha bo'lgan holat larni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlil i orqali ko'rsatib o'tadi. 23-28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o'zgarishi, takomillashuvi: ko'rish maydoning ko'lami, ko'z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarmasligining o'sishi boshqa faoliyat va ko'rish ta'sirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo'ladi: 22-25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemolik-xotira, tafakkur va attensional-diqqat hususiyati va xossasining majmuasidan iborat bo'ladi. Yoshlik davrida yigit va qizlar komolotiga uchta muhim psihologik mexanizm: - mehnat jamoasi - oila mikro muhiti - norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psihologik iqlim, ma'naviyat olami, barqarorlikni yo'qligi, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan ananalar va odatlar yangi azoning xarakter ida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo'qolishi mumkin.

Mehnat jamoasiga yangi qo'sxilgan azo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun birqator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsada chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'il jamoadagi psihologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shaxs xarakter ini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik,adolatlilik singari xislar, shaxsiy nuqtai nazar bo'shashib qoladi. Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush-o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomila qilishi shart bo'lib qoladi. Inson uchun psihologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy maylli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi hulqi bir-biriga mos tengoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar rayiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakter ida o'zgarishlar yuzaga keladi.

Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psihologik hususiyatlari Kamol topishning bu bosqichiga 28-35 yoshlardi erkak va ayolar kiradilar. Yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvatini, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoatchilik ishlariga to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayolning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatida muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari etaklaydi. Etuklik, kattalik, donishmandlik, rahnomolik, g'amho'rlik, xomiylik davridir. Boshqa yosh davrlardagi kabi mazkur davrda inson qanday ishlarni, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli, ko'ngilsizliklar vujudga kelayotganligini anglay boshlaydi. O'ziga o'zi hisob berish shu davrning muhim psihologik hususiyatlaridan biridir. Etuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu hol butun kuch-quvvat, aqliy, zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi hisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi. Etuklik davri faoliyatining mahsuldarligini o'rgangan G.Leman uning cho'qqisi kimyogarlarda 30yosh, matematiklarda 30-34 geologlar va astronomlarda 30-35 yosh ekanligini

va o'rtacha mahsuldorlik cho'qqisi 37 yoshda bo'lishini qayd qilgan. Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo'ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy komolotga ayollar ilgarilib kelgan bo'lsalar, endi erkaklar oldinga o'tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi. Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir qiladi. Natijada unda takabburlik, mag'rurlik xislari paydo bo'ladi, o'zining boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi. Umuman, komolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejsi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir-chikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkonli boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik do'stlik, dunyo lazzatlaridan foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar.

Etuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psihologik hususiyatlari Etuklik davri 36-55(60) yoshlardagi erkak va ayollarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yaxgi xislat namoyon bo'ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo'lsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o'zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qo'ldan boy bergen imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda etti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuy'gusini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrining biror daqiqasi behuda o'tishiga achinadilar, yoshlik yillarda yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar. Etuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rinn egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xusussiyatlariga ko'ra bu, chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga jug'rofiyiqlim va xokazolarga ham bog'liqdir. Mazkur davrnig o'zgaruvchanligi insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzlusiz tarbiyaviy ta'sir) belgilaydi. Umuman yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomonidan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomonidan, ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, xis tuyg'ularga serobligi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi.

Tekshirish va muhokama uchun savollar:

1. Yoshlik davri va uning o'ziga xos psihologik hususiyatlari nimalardan iborat?
2. Etuklik davrining birinchi bosqichida insonda qanday psixologik holatlar vujudga keladi?
3. Etuklik davrining ikkinchi bosqichida yuz beradigan o'zgarishlar nimalardan iborat?

## **12-Mavzu: GERANTOPSIXOLOGIYA.**

### **Reja:**

1. Psixogerontologiya haqida umumiyl tushuncha
2. Biologik keksayish
3. Keksayish davridagi shaxs psihologiyasi
3. Keksalik davridagi shaxsning psihologik hususiyatlari
4. Uzoq umr ko'rvuchilarning psihologik hususiyatlari.

Tayanch so`zlar: Kechikkan yetuklik davri, psixogerontologiya, gerontologiya, keksayish, involyutsiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik, asab sistemasining qarishi, falsafiy fikr, biologik keksayish.

Psixogerontologiya haqida umumiyl tushuncha Psixogerontologiya psihologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan S.Holl asoslagan bo'lsa-da, lekin bu yo'nalishning o'ziga xos

hususiyatlari to'grisida Mark Tulliy Sitseron ("Katta Katon yoki keksayish haqida" asarida), I.I.Mechnikov ("Optimizm etyudlari" kitobida), O'rta Osiyo allomalar donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va mulohazalarni bildirganlar. Amerikalik psiholog S.Holl (1846-1924) "Keksayish" monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g'oyalarni ilgari surgan. O'sha asar keng ilm ahli ichiga tez yoyilishiga qaramay, uning izdoshlari birdaniga ko'paymadi. Yigirmanchi asrning 30-yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy - biologik tadqiqotlarning ko'payishi, shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondashishning paydo bo'lishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha ta'sir ko'rsatdi. Ana shy tariqa keksayishga tibbiy, ijtimoiy jihatdan yondashish bilan bir qatorda psihologik jabhasi jihatdan yondashish ham vujudga keldi va psixogerontologiyaning tadqiqot sohasi kengayib bordi shu soha bo'yicha ingliz tilida maxsus jurnallar chiqsa boshladi. Ilmiy izlanishlarning aksariyati keksayish davridagi odamlar shaxsining hususiyatlari, diqqati, xotirasi, tafakkuri, aql-zakovatiga bag'ishlangan bo'lib, boshqa psixik holatlar, jarayonlar juda kam tadqiq qilingan. Xozir keksayish psihologiyasi ham gerontologiyaga, ham yosh psihologiyasi sohasiga taalluqli degan ikki xil ilmiy nazariya mavjud, vaholanki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini doimo ilmiy axborot va ma'lumotlar bilan boyitib turadi. Psixogerontologiya fanida gerontologiya, involyutsiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud. Gerontologiya - grekcha so'z bo'lib, keksayishning, keksalikning kelib chiqishi demakdir. Geriatriya so'zi keksaygan inson shaxsini davolashni bildiradi. Involyutsiya tushunchasi evolyutsiyaning teskarisi bo'lib, o'sishdan orqaga qaytishni ifodalaydi.

Gerogigiena - keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash sohasidir. Gerogigiena keksa odamlarda asab ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun xizmat kiladi. Geteroxronlik - bir xil yoshdagi odamlarda ruhiy jarayonlarning turlicha (har xil vaqt va muddatda) namoyon bo'lishidir. Psixogerontologiya fanida gerontogenezning evolyutsion omillari qatoriga I.V.Davidovskiy nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarni kiritadi. D.Bromley insonning qarish sikli uchta bosqichdan iborat bo'lishini ta'kidlaydi: 1) "ishdan, xizmatdan uzoqlashish" (iste'fo) 66-70 yosh; 2) keksalik (70 va undan katta yosh); 3) munkillagan keksalik (hasta keksalik va o'lim)-maksimum 110 yosh.

Shu bilan birga keksayishning qonuniylari ham kashf qilingan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) geteroxronlik (har xil vaqtlilik) qonuni; 2) o'ziga xoslik qonuni; 3) xilma-xillik qonuni. I.V.Davidovskiy "Keksayish nima?" nomli asarida ta'kidlaganidek, inson 50-60 yosha to'lganda yoki undan oshgan chog'ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning o'limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki xozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish yoshidan 15-20 yil ilgarilab ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug'ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko'rvuchilar asosan ozg'in, faol, harakatchan odamlar bo'lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga dahldor tinka quritar kasalliklardan holi bo'ladilar. Tadqiqotchi P.P.Lazerev 1928 yilda umr o'tishi bilan ko'rvuv apparati markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi. Keyinchalik, 1967 yilda amerikalik psiholog Gregori bu fikrni tajribadan o'tkazdi va inson keksayishi bilan reseptor apparatining optik funksiyasi zaiflashadi, ko'rvuz sevgisi va idrokini xiralashtiradi, dedi. Ko'zning rangni sezishi yosh ulg'ayishi bilan o'zgarib boradi, hatto, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Shuni, alohida ta'kidlash kerakki, rang ajratish, spekti nurlarini yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot Gelmgolsga qiyos beriladi. Ko'rishning pasayishi geteroxron hususiyat kasb etib, spektrning qisqa va tekis qismida (ko'k va qizil rangda) aniqroq aks etadi. Psikogerontologik nuqtai-nazardan sezish vaqtini tadqiq qilgan ye.N.Sokolov, ye.I.Boyko, A.R.Luriyalar sezish vaqtini yosh davrining informatsion stimul funksiyasidan boshqa narsa emas deya xulosa chiqaradilar. Ular sezish vaqtining egri chiziqli ko'rsatkichlarini sxema tarzida ishlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita hususiyatni chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o'xshash ma'lumotlar D.Birron, D.Botvinnik tajribalarida ham olingan. Psixogerontologiyada keksa erkak va ayollarning psihologik hususiyatlarini o'rganishda ko'proq test (sinov)dan foydalilanadi.

Testlar o'z maqsadi, mohiyati hamda tizimiga binoan bir nechta ko'rinishga ega: 1) maqsadga yo'naltirilgan, bilim saviyani aniqlovchi standart testlar - imtixon - sinov natijasi; 2) insonning aql-zakovatini o'lhashga moslashtirilgan aql testlari; 3) inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo'ljallangan testlar; 4) inson iste'dodi, iqtidori hamda qobiliyat darajasini aniqlashga qaratilgan testlar. Keksayish davrida odamlar psihologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtadan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kishilarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug'ullanish xistuyg'usini uyg'otadi. Testlar bilan ishslashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yiladi, lekin ularni aynan o'sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o'tgandan keyin takror o'tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psihologiyasini tadqiq qilishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda.

Biologik keksayish Nafaqa yoshiga to'lgan kishilarning ishni davom ettirish istagi va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Bu talablar M.D.Aleksandrova va uning shogiddari ta'kidlaganidek, 60 yoshdan oshgan odamlarning somatik sihatliliqi ularning ishlab chiqishda qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruhiy salomatligi ishslashda qay darajada yordamlashuvini, sog'lom keksa odamning psixofiziologik funksiyalari, psikik jarayonlari, shaxsiy hususiyatlari va kasb-korlik uchun zarur talablarga mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir. Shularning so'nggi qismini tadqiq qilish bevosita psihologlarning zimmasida bo'lib, yosh ulg'ayib borishiga qarab fiziologik funksiyalarning o'zgarishini psixometriya ma'lumotlariga tayanib muayyan usulda o'rganishi lozim. Bu usulda bir qancha elat jamoa, xududning xuddi shu yoshdag'i aholisi bilan solishtiriladi. Tadqiqotning bu usuli ayrim ruhiy jarayonlarning yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Asab sistemasining qarishi. V.D.Mixaylova- Lukasheva, M.M.Aleksandrovskaya kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o'zgarishi o'rganilgan bo'lib, bu hol makroskopiya va mikroskopiya ma'lumotlari asosida ifodalangan.

Makroskopiya ma'lumotlariga ko'ra: a) keksalik davrida miyaning og'irligi 20-30 foiz yengillashadi; b) bir davrning o'zida miya bilan kalla suyagining hajmi o'rtasida disproporsiya kuchayadi; v) keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayishi kuzatiladi, bular ayniqsa miya qobig'inining peshona qismida yaqqol ko'rindi va yetuk yoshdag'i odamlarga qaraganda 3-4 ta yo'l qisqaradi; g) miyaning zichligi ortadi. Mikroskopianing natijalariga binoan: 1) nerv hujayralarining umumiyl miqdori kamayadi, bu o'zgarish qobig'inining III-V zonalarida aniq bilinadi; 2) Purkine hujayralarining miqdori keskin kamayadi, hujayralarning yo'qolishi yetuk kishilarga nisbatan 25 foiz ko'p bo'ladi; 3) nerv hujayralari ajinlashadi, yadro esa noto'g'ri ko'rinishga ega bo'la boshlaydi; 4) nerv tolalari yo'g'onlashadi; 5) xabar olib boruvchi yo'lida mielin tolalarining miqdori ozayadi. Sensor-perseptiv funssiyalarning qarishi. Ko'rish funksiyasining yosh davri dinamikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mayjud bo'lib, amerikalik psiholog Kruck tadqiqotining ma'lumotlariga qaraganda agar vaqt hech bir cheklanmasa, ko'ruv stimullarini idrok qilish 20-50 yoshli odamlarda bir tekis, aniq va to'g'ri amalga oshishi mumkin. Mabodo vaqt cheklangan bo'lsa, idrok qilinayotgan jism qisqa vaqt namoyish qilinsa, qo'zg'atuvchinining kuchi o'zgarib tursa yoshlar bilan kattalar o'rtasida keskin farq vujudga keladi. Oddiy turmushda bu hol jismlarga uzoq muddat termulish imkoniyati va sun'iy yorug'likdan foydalanish ko'ruv idroki pasayishining oldini oladi va muvaqqat uzilishni barham toptiradi. L.E.Birron va L. Botvinnik, quyidagicha xulosa chiqardilar: sensor informatsiyani qayta ishslash va stimullarni baholash uchun keksa kishilarga ko'p vaqt kerak. Ko'rish pasayishining ikkita sababi bo'lib, bir ko'z gavharining torayishi, ikkinchisi ko'z akkomodatsiyasining yomonlashuvidir. S. Pakoning fikricha, idrok qilinayotgan ob'ekt va uning stimullari qanchalik murakkablashib borsa, tajribada yosh davrining farqlari shunchalik ortib boradi. Bir guruh psihologlarning uqtirishicha, idrok funksiyasidagi yosh davriga bog'liq pasayishning asosiy sabablaridan biri miya po'stining gnostik zonasidagi neyronlar miqdorining kamayishidir, U.Mayls va A.Uelford uning pasayishini aytganlar. Eshitish. Eshitish qobiliyatining

eng yuqori darajasini 14-15 yoshlarga to'g'ri keladi, undan keyingi kamolot davrlarida biroz pasayish yuz beradi. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson yoshining ulg'ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mo''tadil holat hisoblanib, organizmning biologik qarishi bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi. Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobiliyatini yomonlashtiradi. Eshitish o'quvini yo'qotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko'p uchraydi. Ta'm bilish sezgisida ham yosh ulg'ayishi va keksalik tufayli ayrim o'zgarishlar vujudga keladi. Macalan nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o'zgarmasada, lekin undan keyingi o'sish davrida maza so'rg'ichlari miqdorining kamayishi evaziga sezgi chegaralarining kengayishi sodir bo'ladi. Hid sezgirlingining o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir. Bundan tashqari, hid bilish sezgirlingi kamayishining sabablari havoning ifloslanishi, zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamini yetishmasligidir. Keksayganda og'rik va teri-tuyush sezgirlingi ham pasayadi. Tebranish sezgirlingi ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaning orqa qismlaridagi degenativ o'zgarish ana shu holatni keltirib chiqaradi. Keksayish davridagi shaxs psihologiyasi Keksayish davriga 61 (56) - 74 yoshli erkak va ayollar kiradilar. Bu davrdagi kishilar xilma-xil hususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh davrlardagilardan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin: a) mutlaqo iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bo'lмаган erkak va ayollar; b) nafaqaxo'r erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jahbalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Ularning his-tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq namoyon bo'ladi. Ularning his-tuyg'ulari vujudga kelishi jihatdan ikki xildir: 1) barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z qadr-qimmatini saqlayotgan, nufuz talab erkak va ayollar; 2) kayfiyati barqaror, osoyishta hulq-atvorli, oila muhitining sardoriga aylangan, tabiat va jamiyat go'zalliklaridan bahramand bo'layotgan, ijtimoiy faoliyatdan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kishilar. Ularning bir guruhi moddiy boylik ma'naviyat bilan qo'shib olib borishga intilsalar, boshqalari to'plangan moddiy boylik bilan qanoat hosil qiluvchilar, qolgan umrini xotirjam, zahmat chekmay utkazishga ahd-u paymon qilgan erkak va ayollardan iboratdir. Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz ham mana shu ikkala omilning mahsuli hisoblanadi. Keksayish davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Ruhiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), ahloqqacha (farosatlilik, hushyorlik, xozirjavoblik, topqirlilik) va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka) kabi ruhiy holatlarda o'z aksini topadi. Ayollarning zaifa deb nomlanishi ham bejiz emas, chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruhiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi (ko'z yoshi quvonchdan bo'lsa, irodaning zaifligini ko'rsatadi, g'am-g'ussa, o'kinish tug'yon sababli bo'lsa, his-tuyg'uni boshqarish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi. Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mehr-muhabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob beruvchanligi jihatdan ertaroq qarishga olib keladi (asab sistemasining buzilishi, irodaviy zo'riqish, aqliy tanglik holatlari). Psihologlar keksayish davridagi erkak va ayollarning ruhiy dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganlar. Amerikalik V.Shevchuk mazkur yoshdagagi odamlarning ijtimoiy faoliyatda qatnashishi hususiyatini tekshirib, 65 yoshlilarning 24,1 foizi 70 yoshlilarning 17,4 foizi, 75 yoshlarning 7,7 foizi ijtimoiy faoliyatdan voz kechganligini aniqlagan. Oliy maktab muallimlarining ilmiy mahsuldorligi dinamikasini tadqiq qilgan M.D.Aleksandrova matematika, fizika, biologiya, psihologiya va boshqa sohalarning vakillari o'rtasida keksayishning birinchi bosqichida (61-66 yoshlarda) bir oz farq mayjud bo'lsa-da, uning ikkinchi bosqichida (67-72 yoshlarda) o'sha tafovut ham yo'qolib borishini ta'kidlaydi. L.I.Zaharova esa keksayish davridagi erkak va ayollarning oliy nerv faoliyatini tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydonining chegarasi uchun quyidagilar muhim rol o'ynashini uqtiradi: 1) ko'rish yo'llari analizatori chekka qismlarining holati; 2) markaziy nerv sistemasining umumiy faolligi; 3) insonning yoshi; 4) ko'rish analizatorining faoliyat ko'rsatish sharoiti; 5) insonning jinsi. Amerikalik psiholog D.Veksler keksayishda aqlni

o'lchash uchun 1939 yilda maxsus test ishlab chiqqan va "Katta kishilar aqlini o'lchash va baholash" nomli kitobida test o'tkazish usullarini batafsil bayon qilgan.

"Veksler batareyasi" 11 ta subtestdan iborat bo'lib, ulardan 7 tasi verbal (so'zlardan tuzilgan), 4 tasi noverbal (alomatlardan iborat)dir. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori natijaga 15-25 yoshlilar, boshqa ma'lumotlarga ko'ra 26-29 yoshlilar erishadilar, keyin 40-45 dan asta-sekin pasayish boshlanadi, 60-65 yoshlarda bu ko'rsatkich yanada quyiga tushadi. D. Veksler keskin o'zgaruvchan va kam o'zgaruvchan yosh davri funksiyalariga alohida e'tibor beradi. Birinchisiga qisqa muddatli xotira, o'xshashlik, simvollar, koss kubchalari, ikkinchisiga - lug'at boyligi, umumiylar ma'lumotlilik, rasm tuzish (tartibga keltirish ma'nosida), tugallanmagan rasmlarni idrok qilish kiradi. Mazkur variatsiyalardan foydalanib, eksperimental psihologiyaga yangi ko'rsatkich kiritishni taklif qiladi, u deterioratsiya koeffitsient deb ataydi, (deterioratsiya - yomonlashuv, buzilish demakdir). Yosh odamlarda mazkur koeffitsient 5 foizdan oshmaydi, keksalarda esa 20 foizga yaqinlashadi. Ko'rinish turibdiki, yosh ulg'ayishi bilan nomutanosiblik darajasi o'sib boradi. D. Veksler testi to'g'risida har xil tanqidiy mulohazalar mavjud bo'lsada, lekin muallifning yoshlarga tatbiq qilgan testi ularning aqliy tayyorgarligi darajasini, o'qishga o'quvlilagini bildirsa, keksalarda u hayotiy tajribalarga asoslangan donishmandlikni anglatadi, degan fikr to'g'ridir. Keksalik davridagi shaxsnинг psihologik hususiyatlari Keksalik davriga 75-90 yoshdagи erkak va ayollar (buva va buvilar) kiradi va bunday odamlarning boshqa yosh davrlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan hususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Keksalarni jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko'nikkan qariyalar guruhlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy faoliy fahriylar jamoasida, kasbiy jamoalar faoliyatida qatnashishda o'z ifodasini topadi. Keksalik davrida foniy dunyodan umidsizlik tuyg'usi paydo bo'ladi va bu hol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi. Lekin "O'g'limni uylantirsam, dunyodan armonim yo'q" qabilidagi mulohazalar doimiy odatga aylanib qolgan. Keksalikning ikkinchi muhim hususiyati betoblikda, vasiyat qilish, qarindosh-urug'lardan rozi-rizolik tilashishdir. Jismoniy harakat imkoniyatiga ega bo'lgan qariyalar mehnat qilishga intiladilar, biroq uning mahsulidan ko'ngillari sira to'lmaydi. Ular tarixiy voqealarni tirik guvoh sifatida batafsil bayon qilib beradilar. Nutqdagi juz'iy kamchiliklarni hisobga olmaganda (ayrim mantiqiy bog'lanishdagi nuqson, talaffuzning buzilishi) keng ko'lamdagи axborotlarni o'zgalarga uzatish imkoniyatiga ega. Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, hususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma'lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishslash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to'plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi... Iordaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini yemira boshlaydi. Natijada tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash hususiyati o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli qari odam bola tabiat arazchan, ko'ngli bo'sh, hissiyotga beriluvchan xarakter li bo'lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsnинг sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda hayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o'rtasida ko'pgina sabablarga ko'ra nomutanosiblik tug'iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan ob'ektga to'play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg'ul bo'la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto'g'ri idrok qilish, ya'ni illyuziyalar ko'proq o'rin egallaydi. Monokulyar va binokulyar ko'rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter hislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchszlik hislari yetakchi rol o'ynay boshlaydi. Psihologlardan I.Baylash va D.Zabeklar keksalarda xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, eruditisiya, nutq sur'ati kabilarni tadqiq qilib, ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni (xotira 0,20, idrok -0,28, mantiqiy tafakkur -0,37, eruditisiya -0,33, nutq tezligi -0,40 ligini) aniqlaganlar. Amerikalik psihologlar Freud va Zabeklar keksalik davrida tafakkurning tanqidiligini o'rganishda deduksiya va sillorizmlardan foydalanib, keksalikda tafakkurning ob'ekti torayishi va keskin rad qilish kuchayishini aniqlaganlar. D.Bromley qariyalarda ijodiy tafakkurning pasayishi, o'ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuvini va dogmatizmga asoslanishini topgan. B.A.Grekov so'z assotsiatsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining hususiyatini tekshirgan. Uning

ma'lumotlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) 70-80 yoshlardagi keksalikda xotira (ayniqsa mexaniq esda olib qolish) zaiflashadi; 2) 70-89 yoshlarda mantiqiy-ma'noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi; 3) obrazli xotira zaiflashadi; 4) 70-89 yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma'noning ichki aloqasi yotadi; 5) uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi; 6) 90 yoshda nutqning ichki bog'lanishi buziladi; 7) xotiraning obrazli, hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo'yusunmay qoladi. Psihologiyada qariyalarda aqliy faollikni o'rganishda korreksion sinov va krepilin sinovidan foydalaniladi. Kamolotning umumiyligi modeli U.Shayening uch omilli variantlari yordamida yaratiladi. Xozirgi zamon psihologiya fanida keksalikni uchta tomonidan: yosh psihologiyasi, psixogerontologiya va tibbiy psihologiya yo'naliishlarida o'rganish zarur ma'lulotlar to'plash imkoniyatini bermoqda. Sog'lom qariyalarda donishmandlik umrning oxirgi nafasiga qadar saqlanishi tajribalarda qayd qilindi. Psixopatologik holatlar barcha qariyalar uchun majburiy bosqich emasligi ham tasdiqlangan. Keksalik davrida, umuman ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi donishmandlikda farq mavjud bo'lsa ham, lekin qariyalar orasidagi donishmandlik, donolik hislatlari ikkala jinsga ham xosdir. Shuning uchu ikkala jins o'rtasida biologik qarishda tafovut mavjud bo'lsada, lekin ruhiy jihatdan zaiflashuv jarayonida o'zaro yaqinlik xukm suradi. Psixogerontologiyada yuksak ijodiy faoliyatning o'ziga xos ko'rinishlarini tadqiq qilish rassomlar, yozuvchilar va bastakorlarning ijodini, huquqshunoslarning qobiliyati va mahoratini, hisobchilarning kasbiy malakalarini o'rganish yo'naliishlarida amalga oshirilgan. G.Leman o'z tadqiqotlarida turli sohalardagi mutaxassislar faoliyatini tahlil qilib, ularning o'ziga xos hususiyatlarini atroficha ifodalagan. Masalan fransuz rassomi Klod Mone 50 yoshda 86 yoshigacha ijodiy quvvatini sira bo'shashtirmay, sermaxsul mehnat qilgan. Uning ijodida hech qanday tushkunlik ro'y bermagan. Ijodiy mahsuldarlik evolsiyasi Titsian, L.Kronax, O.Tian, Mikelanelo kabi o'nlab ijodkorlarga xosdir. G.Leman o'z tadqiqotlarida ijodiy faollikning o'ziga xos ko'rinishlarini yozuvchi misolida o'rgangan. Muallif hind yozuvchisi R.Tagorning ijodiyotini tahlil qilib, uning ijod cho'qqisi 69 yoshda bo'lganini aniqlagan (yozuvchilar ijodiyot cho'qqisi 34 yoshda, 43 yoshda ham uchraydi). R.Tagorning 25 yoshida yozgan "Kelin" she'ri bilan 78 yoshda yozgan "Sarob" asari o'rtasidagi o'xshashlik va ustunlik chuqur ifodalangan. G.Leman bastakor I.S.Bax (1685-1750) ijodiyotini tekshirib, uning durdonasi asarlari keksalikda yaratilganini aniqlagan. G.Leman o'z tajribalarida huquqshunoslik, hisobchilik kasblaridagi shaxslarni o'rganib, ular ijodiyotini muhim jihatlarini ochib bergan. A.R.Luriya xotiraning o'ziga xos hususiyatini jurnalist misolida o'rganib, keksa kishilar psixikasi bo'yicha ilmiy-amalii ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plagan. Keksalik yoshidagi chol va kampirlarda o'z shaxsiyatiga yangicha munosabatlар paydo bo'ladi. Ko'pincha ular o'zlarini kamroq bezovta qilishga, jismoniy kuch-quvvatni ayashga, ehtiyyotkorlik bilan harakat qilishga odatlanadilar, organizmlarining toliqishiga yo'l qo'yaydilar, iloji boricha nutq faoliyatiga kamroq murojaat qiladilar, ortiqcha axborotlarni qabul qilmaydilar. Shuning uchun keksayganda "jon shirin bo'lib qoladi". Keksalikda er-xotin o'rtasidagi munosabat yanada mustahkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot kezida barcha taassurotlar, ma'lumotlar, kechinmalar, histuyg'ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qumsash, hamdardlik kabi yuksak tuyg'ular totuvlikni yanada mustahkamlaydi.

Keksalik davrining yana bir hususiyati boshqa kishilarga, begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shy yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular yer yuzidagi jamiki inson zotiga yaxsxilik tilaydilar. Bu so'nggi yuksak tuyg'u baynalminalchilikning tabiiy ko'rinishidir. Qariyalardagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylilik singari tuyg'ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg'usiga aclo o'xshamaydi. Uzoq umr ko'ruv chilarning psihologik hususiyatlari Yirik jahon psihologlari S.Pako, G.Offre, L.Bine, U.Maynot, E.Medavir, A.Komfort, I.V.Davidovskiy, B.G.Ananov, N.V.Nagorniy, ye.D.Aleksandrova va boshqalar uzoq umr ko'rish sirlarini ekologik omillar orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladigan omillardir. Insonning ijtimoiy muhiti sharoitlari ichiga kasb mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyati kabilalar kiradi. Jahon fani to'plagan ma'lumotlarga ko'ra ochiq havoda ortiqcha zo'riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug'ullangan

odamlarda harakatning tezligi, qad-qomatning tikligi, ma’naviy tetiklik, ruhiy faollik uzoqroq saqlanadi. Mana shy holat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug’ullanuvchi kishilarda ham bo’ladi.

“Umrni uzaytirish muammolari” nomli (1952) kitobda dog’istonliklarda uzoq umr ko’rishning asosiy sabablari quyidagilar ekanı ta’kidlangan:

1. Respublikaning tog’li qismidagi iqlim sharoiti va jo’g’rofiy omillar;
2. Sutkasiga 3-4 marta iste’mol qilinadigan go’shtli, o’simlik moyli va sutli oziq-ovqatlar, chekishning, ichish va ortiqcha jinsiy aloqaning taqiqlangani;
3. Avloddan-avlodga asrlar davomida o’tib kelayotgan madaniy an’analar, o’ziga xos turmush tarzi va uning hususiyatlari;
4. Gigienaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilinishi va butun umr bo’yi jismoniy mehnat bilan shug’ullanish;
5. Bir maromda ham passiv, ham aktiv xordiq chiqarish;
6. Aholi turmush darajasining moddiy-maishiy jihatdan yaqinlashishi va hokazolar.

S.Pako va uning izdoshlari ta’kidlaganidek, keksayish jarayonida ayrim psixofiziologik va psihologik jarayonlarning barqarorlashuvi inson umrining uzayishiga, unda ijodiy faollik uzlusiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mehnat bilan doimo shug’ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi. Shu bilan birga iqtidorli va aqlni peshlash mashqlari bilan shug’ullangan kishilarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib, boshqa bilish funksiyalarining faoliyati bir tekis harakatni vujudga keltiradi. Uzoq umr ko’rishning, umr uzayishining muhim omillaridan yana bittasi kasb-korlik faoliyatiga bog’liq psixiy holatning, barqarorlashuvidir. Ana shy holatga insonning ko’rish idrokida fazoni farqlash (fazoviy tasavvur) qobiliyati kiradi. Fransuz gerontologi va oftalmologi G.Offre “Gerontologiya asoslari” (1960) kitobidan joy olgan “Ko’zning keksalarga xos o’zgarishi” asarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo’lgan ma’lumotlar keltiradi. Uning fikricha, keksalikda presbioniya (grekcha, qarilikda ko’rishning zaiflashuvi) hodisasi ro’y berib, yaqinni ko’rish yomonlashadi. G.Offrening fikricha, 10 yoshdan ko’rish akkomodatsiyasining kuchi pasayishi, agarida 10 yoshda akkomodatsiya kuchi 16 dioptriyaga (grekcha optik o’lchov) teng bo’lsa, 40-45 yoshda - 4, keyinchalik esa bir dioptriyaga tushib ketishi mumkin. 50-60 yoshlarda akkomodatsiya o’zining eng quyi darajasiga tushadi, biroq shundan keyingi yosh davrlarida barqarorlashib boradi. Jahon psihologiyasi fani ma’lumotlariga qaraganda akkomodatsiyaning kuchi shunchalik kamayib boradiki, yaqinni faqat ko’zoynak bilan ko’riladigan bo’ladi. Keksayish davrida odamlar psihologiyasini o’rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo’riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtidan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kishilarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug’ullanish histuyg’usini uyg’otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo’l qo’yiladi, lekin ularni aynan o’sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o’tgandan keyin takror o’tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psihologiyasini tadqiq qishishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda. S.Pako va uning izdoshlari ta’kidlaganidek, keksayish jarayonida ayrim psixofiziologik va psihologik jarayonlarning barqarorlashuvi inson umrining uzayishiga, unda ijodiy faollik uzlusiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mehnat bilan doimo shug’ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi. Shu bilan birga iqtidorli va aqlni peshlash mashqlari bilan shug’ullangan kishilarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib, boshqa bilish funksiyalarining faoliyati bir tekis harakatni vujudga keltiradi.

Muhokama va takrorlash uchun savollar:

1. Psixogerontologiyaga ta’rif bering.
2. Biologik keksayish deganda nimani tushunasiz?
3. Keksalik davridagi shaxsnинг psihologik hususiyatlari

### **13-Mavzu: Tarbiya psixologiyasi.**

**Reja:**

1. Tarbiyaning shaxsini shakllantirish maksadiga karatilganligining psixologik muammolari.
2. Faoliyat - odamning shaxs tarikasida shakillantirish asosi ekanligi.
3. Umuminsoniy va milliy boyliklarning shaxs shaklanishidagi roli.
4. Ijtimoiy foydali faoliyat - tarbiya vositasi ekanligi.
5. Tarbiyasi «kiyin» bolalar xulqini tuzatishdagi psixologik masalalar.
6. Ma'naviy ong va xulq-atvor birligi.
7. Psixologiyada tarbiya mexanizmlari.

I. Tarbiya shaxsni shakillantirish maksadiga karatilgan va unda xayotiy e'tikod va xis-tuygular, ma'naviy xulq-atvor xosil kilish jarayonidir. «Ta'lif-tarbiyani yangi zamon talablari darajasiga kutarish usib kelayotgan yosh avlodlarimizning porlok kelajagini garmonik ustirish imkoniyatini yaratish» (I.Karimov Uzb.R Prezidenti, Oliy Majlisning IX ses.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi) xozirgi kunning asosiy masalasidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shuni nazarda tutadiki, boshka muxim masalalar katorida Milliy kayta tiklanish mafkurasi va jamiyat boyliklari asosida o'quvchilarni ma'naviy va axlokiy xislatlarini ustirish, o'quvchilarning xulq madaniyatini shakllantirish, barkamol nasni tarbiyalab yetishtirish orkali xakikiy inson kilib tarbiyalash lozim.

Xozirgi zamon tarbiyasining maksad va vazifalari avvalo, yoshlarni chinakam ma'rifatli kishi kilib, inson kadrini, milliy kadriyatlarini uzligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, Mustaqil davlatimining jaxon xamjamiyatida uziga munosib, obruli urin egalaydigan fidoyi insonni tarbiyalashdir.

II. Tarbiya - maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maksadining mavjudligi bilan, ta'sir kursatishining maxsus ishlab chikilgan va asoslab berilgan vositalari shakllari xamda usullarini kullanishi bilan tasodify va stixiali ta'sirlardan ajralib turadi. Sogolm tarbiyaviy vaziyatsiz mukkammal shaxs vujudga kelmaydi.

O'quvchilarning xayoti va faoliyatini tugri tashkil kilish, ijobjiy axlokiy, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi shaxsning tarkib topishida muxim axamiyatga ega. Ma'lumki, birgina faoliyatning uzida shaxsning xar-xil va xatto bir-biriga karama-karshi sifatlarini tarkib toptirish mumkin. Buning asosida mакtab o'quvchisi amal kiladigan motivlar yotadi. Bu xulq-atvor shaxsan o'quvching uzi uchun kanday ma'noga ega bo'lishiga karab, unda xar-xil sifatlarni tarkib topishiga sabab buladi.

Masalan: O'quvchi urtagini prinsipial asosda tankid kilsa – unda kat'iylik, xalollik; agar uz aybini urtoga kuyish bulsa – xudbinlik individualizm, egoizm paydo buladi.

Faoliyat – odamni shaxs sifatida shakilantirish asosi xisoblanadi. Bola uyin, o'qish va mexnat faoliyatiga kanday munosabatda bulsa, unda shu faoliyat asosida ijobjiy va salbiy sifatlar shakllanishi mumkin. O'qish va uyinga ijobjiy munosabat, ilmga intilishga kizikish, mexnatsevarlik kabilar bilan, salbiy munosabat esa ishyokmaslik, dangasalik uzini idora kila olmaslik kabilar shakllanishiga sabab buladi.

Shuning uchun xam faoliyatining yetakchi tiplarini uyushtirish bola shaxsini shakllanishiga maksadga muvofik ta'sir etish vositasidir...

Axlokiy extiyojlarining tub moxiyati bu: 1) insonning axlokiyligi boshkalar bilan mulokotda bo'lishini ijtimoiy shart-sharoit mavjud bo'lishini; 2) individual ongning axlokiy tomonlarni shakillanishini ijtimoiy shart-sharoitdagi tarbiyaga boglikligi bilan belgilanadi. Va nixoyat, xayotning konkret xollarini xisobga olgan xolda axlokiy extiyojni xis-tuyguga, fikrlashiga boglikligi muximdir.

Axlokiy fazilatlarni namayon bo'lishi ijtimoiy burch tushunchasi bola ongiga kanday singdirilishiga boglik . Burch- bu jamiyat va jamoaning inson oldiga kuygan turli-tuman talablarini ifodalovchi tushunchadir. Ijtimoiy burch – keng ma'nodagi tushuncha bulib, bu odamiylik, vatanparvarlik burchi, kasb burchi, ota-onalidagi burchdir.

III. Yoshlarning axlokiy fazilatlarini tarbiyalashda umuminsoniy va milliy boyliklardan foydalanish muximdir. Chunki umuminsoniy va milliy boyliklar xamda ularning shaxs shakllanishidagi roli axamiyatlidir. Milliy an'analar, urf-odatlarimizning tiklanishi milliy, umumbashariy va umumma'naviy kadriyatlarga asoslangan axlok normalarini yaratish va ularni bolalarimiz, yoshlarimiz ongiga singdirish orkali ularni jamiyatimiz uchun fidokor, bilimdon inson kilib tarbiyalashga asos bula oladi.

Milliy an'analar - xar bir xalqning ma'naviy xayotining maxsuli bulib, usha xalqning ijtimoiy fikri milliy an'analarni ularning ma'naviy extiyojiga aylantiradi. Milliy an'analar yoshlarda ijtimoiy ongni tarbiyalaydi, ularning xar tomonlama kamolga yetgan inson bulib yetishishida muxim urin tutadi. U shaxs xarakterini ijobiy tomonga shaklantirishda faol ishtirok etadi, yoshlar mafkurasiga psixologik ta'sir kiladi.

IV. Bola shaxsini tarbiyalashda ijtimoiy foydali faoliyat xam muxim rol uynaydi. Chunki u tarbiyaning eng kulay sharti va vositasi xisoblanadi.

Ijtimoiy foydali faoliyat, mexnat tarbiya vositasi bo'lishi uchun:

bolaning mexnati ijtimoiy foydali mexnat bo'lishiga;

ijtimoiy kiymatga ega bulgan foydali maxsulot mexnat natijasi bo'lishiga;

mexnat jamoa mexnati bo'lishiga;

u tashabusskor va ijodiy mexnat bo'lishiga;

mexnatda uz-uzini uyuştirish va Mustaqil faollik kursatishning xar xil shakllari kulanilishiga axamiyat berish kerak.

O'quvchilarning mexnati - ularning uzlari uchun kizikarli bo'lishi;

Bolaning kuchiga mos bo'lishi;

Ukuv faoliyati bilan boglik bo'lishi;

Mexnat uchun jazolashga mutlako yo'l kuyilmaslik kerak.

Shuni sinchiklab puxta, vijdonan bajarish mexnat anjomlarini asrash va tejashta urgatadigan bo'lishi lozim.

V. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. . . .

VI. Tarbiyasi «kiyin» bulgan bolalar bilan ishlash:

a) ularning individual xususiyatlarini aniqlash;

b) kizikish va e'tikodlarini xisobga olish;

v) tarbiyaviy usullarini tanlash;

g) tarbiyaning maxsus sharoitlarini aniqlash.

VII. Shaxsnинг ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ma'naviy ong va xulq-atvor birligi muximdir. Yoshlarni uz-uzini anglashi, yaxshi-yomon va adolatli-adolatsizlikni xis kilgan xolda uni uz-uziga tatbik kilishi, uzini tarbiyalash tarbiyaning psixologik mexanizmini tashkil kiladi.

Uz – uzini tarbiyalashda 4-ta vazifa nazarda tutiladi

uzida shaxsnинг ijodiy xislatlarini tarkkiy etirishga va uz xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xolis bulishga intilish.

O'quvchiga uz shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, uz xulq-atvoridagi xususiyatlarini dikkat bilan va okilona tushunib olishida, uz kamchiliklarini yakkol kurishda, uz nuksonlarini faxmlab olishida yordamlashish.

Uz-uzini tarbiyalash rejasini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatlarini kaysi xususiyatlarini tarakkiy etirish, kaysisisiga barxam berish kerakligini aniqlash.

Tarbiyachi uz-uzini tarbiyalashning okilona yo'llarini aniqlashi.

VIII. Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash

Vatanparvarlikni shakllantirishda:

A) Ona-vatanga muxabbat, uni sevish, e'zozlashga urgatish.

B) Mustaqil Uzbekiston tushunchasining moxiyatini o'quvchilar ongiga singdirish.

V) Yoshlarni xalqimiz an'analariga, udumlariga, tili va madaniyati, ruxiyatiga xurmat bilan karashga urgatish.

G) Buyuk daxolarimiz koldirgan ma'naviy meroslarni asrab avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun axamiyatini idrok etish

D) Yoshlarda soglom kuch, soglom tafakkur, iymon-e'tikodni uygotish

Ye) Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati uchun kurashning moxiyatini anglash.

J) O'quvchilarda unib usgan yurtiga, voyaga yetkazgan ota-onasiga va ta'lim-tarbiya bergen ustoziga ta'zim kilish malakasini shakllantirish.

Vatan va vatanparvarlik egizak

Nazorat savollari:

Tarbiya nima?

Xozirgi Mustaqillik davrida tarbiya jarayonida kanday muammolar paydo buldi va uni kanday kilib bartaraf kilinmokda?

Faoliyat shaxs tarakkiyotida kanday rol uynaydi?

Yetakchi faoliyat va shaxs shakllanishini kanday izoxlaysiz?

Umuminsoniy va milliy boyliklarni shaxs tarakkiyoti va tarbiyasi ta'siri tavsifnomasini bering?

Ijtimoiy foydali faoliyat va shaxs tarbiyasi orasida kanday bogliklik bor?

Bolalar jamosini kanday tashkil kilinadi?

Milliy ong nima?

Milliy guruchi?

Yoshlarni vatanparvarlik ruxida kanday tarbiyalanadi?

Tarbiyasi kiyin bolalar bilan kanday ish usullaridan foydalaniladi?

Kasb tanlash motivlari.

Quyida savollarga (+) yoki (-) belgisi orqali o'z munosabatingizni bildiring.

1. Kasbga, uning talabiga qiziqaman.

2. Shu kasbga oid bilim, ko'nikma va malaka xosil qilish uchun tanlaganman.

3. Ijtimoiy o'rni uchun.

4. Oilaviy an'ana uchun tanlaganman

5. Ota-onamga qaram bo'lmaslik uchun

6. Shu kasbga oid fanlarni yaxshi bilganim uchun.

7. odamlarni boshqarish borligi uchun.

8. Individual ishni yaxshi ko'rganim uchun

9. Ijodkorligi borligi uchun

10. Qobiliyatimga to'g'ri kelgani uchun

11. Yaxshi oylik maoshi borligi uchun

12. O'z xayotimni qiziqarli qilish uchun

13. Mustaqillikka o'rgatadi deb xisoblaganligim uchun.

14. Ishbilarmonligi borligi uchun.

15. Oilamga yordam berish uchun.

16. Iqtisodiy bilim olish uchun.

17. Diplom (oliy ma'lumot) olish uchun.

18. Uzoq o'kimaslik uchun

19. Yaxshi joyda ishslash uchun

20. Yaxshi maosh olish uchun

21. E'tiborli, zamonaviy bo'lganligi uchun

22. Odamlarga yordamim tegishi uchun

23. Ish va moddiy sharoiti yaxshiligi uchun.

24. Tashqi ko'rinishi yaxshiligi uchun.

